

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**PRIMOV ABDULATIF**

# **O‘ZBEK FOLKLORI**

**(O‘zbek xalq lirikasi va dramasi)**

**O‘quv qo‘llanma**

**60230100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)**

**Guliston – 2023**

**A.PRIMOV. O‘ZBEK FOLKLORI ( O‘zbek xalq lirikasi va dramasi)**  
**O‘quv qo‘llanma. Guliston, -2023. -B .100**

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan bo‘lib, auditoriyada o‘tiladigan o‘quv mashg‘ulot mavzulari, glossariy, fan dasturi, tarqatma materiallar, testlar, fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo‘llash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar keltirilgan.

**Mas’ul muharrir**

filologiya fanlari doktori, professor M.Mamatqulov

**Taqrizchilar**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) N.Jo‘raqo‘ziyev

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) D.To‘rayeva

## KIRISH

O‘zbek folklorshunosligi qariyb yuz yillik tarixda o‘zbek folklori namunalarini yig‘ish, arxivlashtirish, ommaviy va ilmiy nashrlarni amalga oshirish, ilmiy tadqiqotlar yaratish kabi keng ko‘lamli ishlarni olib bormoqda. Bu davr mobaynida to‘rtinchi avlod folklorshunoslari yetishib chiqmoqda. O‘zbek folklorshunosligi fan sifatida erishgan natijalarini davrlararo o‘rganish bu fanning taraqqiyot tamoyillarini aniqlash, tegishli xulosalarga kelish imkonini yaratadi. O‘zbek folklorshunosligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘zbek folklorshunosligining taraqqiyot bosqichlarini aniqlash;
- folklor asarlarini yozib olish, saqlash, nashr etish tajribalarini ilmiy baholash;
- epik meros namunalari tadqiq etilgan ishlardagi nazariy qarashlar tadrijini o‘rganish;
- marosim folklori namunalariga e'tibor va ilmiy yondoshuvning shakllanishi, yutuqlarini baholash;
- xalq lirikasida matn semantikasi tahlili, yangi qarashlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi masalalari tahlili;
- o‘zbek mifologiyasi va mifologik obrazlar tadqiqi, zamonaviy metod va metodologiyalarning kirib kelishi;
- o‘rganib chiqilgan sohalar asosida o‘zbek folklorining taraqqiyot tamoyillarini belgilash, ular asosida ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish.

## **1-mavzu: XALQ OG‘ZAKI IJODI SO‘Z SAN‘ATI SIFATIDA. XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### ***Reja:***

1. Mustaqillik davrida xalq og‘zaki ijodini o‘rganish masalalari, folklor ma'naviy tarbiya asoslaridan biri.
2. Folklor atamasi , folklor – sinkretik ijod.
3. Folklor – so‘z san'ati sifatida

**Tayanch so‘z va iboralar:** folklor, sinkretik, obraz, etnografiya, verbal, folklorizm, anonimlik, improvizatsiya, versiya, variant.

### **1. Mustaqillik davrida xalq og‘zaki ijodini o‘rganish masalalari**

O‘zbekistonning Mustaqil Respublika deb e‘lon qilinishi xalqimizning o‘nlab yillar davomida intiqlik bilan kutgan orzusi edi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq davlatimiz o‘tmish qadriyatlarini qaytadan tiklash, odamlar qalbida tutqunlikda yotgan madaniy merosimizga keng yo‘l ochish siyosatini amalga oshirdi. Dunyo ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan buyuk allomalarimiz nomlari, ularning kashfiyotlari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda turli munosabatlar bilan urf-odatlar, rasm-rusumlar ham tilga olina boshlandi.

Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabatda keskin ijobiy o‘zgarish yasadi. Islom Karimovning “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” asaridagi “Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari” deb atalgan bo‘limida: “O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi”, - deyilgan. “Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik”<sup>1</sup> – deb belgilab qo‘yilgan.

Yuqorida qayd etilgan to‘rt negizning har biri yo bevosita, yo bivosita xalq og‘zaki ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy boyligi – pand, o‘g‘itlari, el-yurt qadrini e'zozlash, millatimiz g‘ururini himoya qilishdek oliy tuyg‘ular bilan bog‘lanadi.

Sobiq sho‘ro tuzumi sharoitida turli ta'qiqlarga uchragan Navro‘z, “Alpomish”, “Ravshan” dostonlarning asl qadri tiklandi. Navro‘zni umumxalq bayrami sifatida tantana qilish an'anasi joriy bo‘ldi. 1999-yil 9-noyabr kuni esa “Alpomish”ning ming yillik to‘yi nishonlandi. Bu tantanada so‘zga chiqqan yurtboshimiz Islom Karimov dostonning millatimiz g‘ururini tarbiyalashdagi ahamiyatini alohida ehtirosli so‘zlar bilan izhor etdi:

“Alpomish” - o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o‘tkazib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir”.<sup>2</sup>

“Alpomish” dostonining 1000 yillik to‘yining o‘tkazilishi folklor asarlariga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirdi,

2008-yilda “Ma’naviyat” nashriyoti I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” deb atalgan kitobini nashrdan chiqardi. Avvalo, aytish kerakki, kitobxon asarning boshidan oxirigacha xalq qadriyatlarini, o‘tmish madaniyat, tarix haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar bilan tanishadi. Ayniqsa, muallifning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan hurmati har bir sahifada aniq ifodalanib turadi: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalariidan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar... bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 56.

<sup>2</sup> Каримов И. "Алпомиш" дostonинг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқ. // Халқ сўзи, – 1999. – 9 ноябрь.

<sup>3</sup> Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 31.

2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi” farmon o‘zbek tili, adabiyoti va folklorining davlat miqiyosida qadr topishi, e‘tiborda bo‘lishiga dalil bo‘ldi. Ushbu farmonning amalga oshish jarayonlari va o‘zbek folkloriga, folklor asarlariga, tadqiqotlariga e‘tiborning kuchayishi folklorshunoslik sohasining keng rivoj topish imkoniyatlarini ochdi.

Ma‘lumki, ma‘naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o‘rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo‘lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq kimsa hayotda ro‘y berayotgan voqyealarga loqayd bo‘ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo‘lmas oqibatlariga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Folklor asarlari qadim-qadimda insonning ma'naviy tarbiyasi uchun xizmat qilib kelgan va bugungi kunda ularning bu sohadagi o‘rni yanadi kengaymoqda.

Xullas, xalqimiz og‘zaki ijodining davlat maqomida e‘zozlanishini O‘zbekistonning mustaqillikka erishishining ijobiy natijasi sifatida baholash mumkin.

**1. Folklor atamasi. Folklor – sinkretik ijod.** Inson qadimdan atrof muhitda ro‘y berayotgan voqyea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlar, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik so‘zlar, so‘z yig‘indisi, raqslar his-tuyg‘ularni ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o‘zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o‘simliklar, tog‘lar, suvlarning paydo bo‘lishini izohlovchi to‘qima hikoyalar o‘ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo‘shiqlarini to‘qiydilar. Qabila-urug‘ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g‘aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo‘ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-

jamo'a bo'lib yashayotgan aholi o'rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ularni "xalq og'zaki ijodi" deb atashga odatlanganmiz. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, uning ma'nosi "xalq donoligi" degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi. Me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari – hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni "folklor" deb atayveradi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi.

Folklor so'z san'atining asosini tashkil etadi. Ayni chog'da folklor asarlari hamisha jonli ijro bilan aloqada bo'ladi. Shuning uchun ertak, qo'shiq, doston va boshqa bir qator og'zaki ijod asarlari ijro davomida *sinkretik* san'at namunasi hisoblanadi. *Sinkretik* so'zi birlashmoq, qorishmoq, aralashmoq tushunchasini bildiradi. Doston kuylanganda musiqa, so'z, sahna san'atlari qorishib uyg'unlashadi. Ya'ni baxshi do'mbira, soz chalib xonanda sifatida yoqimli ovozda doston aytadi. Doston esa matndan – so'zlardan iborat bo'ladi, musiqa asbobida ijro etilgani uchun baxshi xonandalik, sozandalik qiladi. Ayni paytda dostondagi voqyealarni tovush tovlanishi – sahna san'ati – aktyorlik mahorati bilan hikoya qiladi. Natijada sinkretik san'at namunasi vujudga keladi.

**3. Folklor – so'z san'ati sifatida.** Xalq og'zaki ijodining so'z san'ati ekanligini tushunishdan avval san'atning o'zi nimaligini bilish lozim. 5 jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"da (3-jild. 442-b): "San'at" [عتصن] - ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar deb ko'rsatilgan. Agar izohdagi so'zlarga e'tibor bersak, san'at deganda, mahorat bilan amalga oshirilgan mehnatni

tushunish anglashiladi. San'atni mahoratsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Birinchidan, har bir soʻz san'ati namunasi, jumladan, xalq ogʻzaki ijodidagi qoʻshiq, ertak, doston va boshqa asarlarda fikriy yangilik boʻlishi lozim. Bu yangilik kichik hayotiy voqyeadan tortib murakkab ijtimoiy vaziyatlarni baholash bilan belgilanadi. Inson hayoti davomida sonsiz-sanoqsiz yangiliklarga duch keladi. Katta avlod vakili tajribasidagi oddiy haqiqatlar yoshlar uchun yangilik hisoblanaveradi. Shuning uchun xalq ogʻzaki ijodi asarlarini eshitganimizda, ular bilan kitobdagi matn vositasida tanishganimizda juda koʻp yangi-yangi fikrlarga duch kelamiz.

Ikkinchidan, asar shakli va mazmuni jihatdan mutanosib boʻlishi kerak. Odatda, shakl qanchalar ixcham, mazmun qanchalar keng koʻlamga ega boʻlsa, asar shunchalar qadrlidir. Xalqimiz ogʻzaki ijodida koʻpincha bunday fazilat maqollarda namoyon boʻladi. Bir jumladan iborat maqolning mazmunini hayotiy dalil va misollar bilan soatlab tahlil qilish mumkin. Lekin hamma janrdagi asarlarga ham bu oʻlchov bilan yondashish mumkin emas. Xususan, dostonlar ming-ming misralardan iborat sheʼriy va hajm jihatdan katta nasriy parchalardan tashkil topadi. Ularning mazmuni ham millatimiz vakillarining hayotini tasvirlovchi lavhalardan iborat. Xalq farzandlarining hayoti esa el va yurt taqdiri asosida yoritiladi. Shunday qilib, topishmoq, askiya, qoʻshiq va boshqa janrdagi asarlar ham oʻzlarida aks ettirayotgan mazmun bilan shaklan mutanosib boʻlishi zarur.

Uchinchidan, badiiy asar, xususan, xalq ogʻzaki ijodida umuminsoniy muammolar ifodalanadi. Albatta, har bir xalqning oʻz milliy xususiyati, milliy tabiati, ya'ni milliy mentaliteti mavjud. Ammo bu milliylik badiiy adabiyotda umuminsoniy muammolarning aks etishiga mutlaqo salbiy ta'sir koʻrsatmaydi. Chunki, yer kurrasining turli mintaqalarida yashaydigan, turli dinlarga ishonuvchi xalqlarning hayotiy munosabatlarida mushtarak nuqtalar juda koʻp. Har bir millatda Vatan, xalq, ota-ona, aka-uka, opa-singil, oʻgay ota, oʻgay ona, ustoz, shogird kabi tushunchalar bor.

Toʻrtinchidan, xalq ogʻzaki ijodi soʻz san'ati ekanini aytdik. Bu fikr



og‘zaki ijodning san‘at sifatini ta‘minlaydigan asosiy omil so‘z ekanini tasdiqlaydi. Har bir san‘at turining o‘z quroli bo‘lganidek, og‘zaki ijodning ham o‘z quroli bor. Bu qurol *so‘z* hisoblanadi.

Fikrimizning qanchalar to‘g‘ri ekani xalqimiz ijodidagi askiya janri misolida to‘liq isbotini topadi. Avvalo, askiya janri (bu haqda askiya mavzuida mukammal ma‘lumot beriladi) dunyodagi birorta xalq og‘zaki ijodida uchramaydi. Janrning asosini milliy tilimizdagi omonim so‘zlarning nihoyatda ko‘pligi tashkil etadi. So‘zlarning shaklan bir xil, ammo mazmunan turli ma‘nolarni bildirishi bir so‘zni talaffuz qilishda birato‘la bir necha fikrni ifodalash imkonini beradi. Natijada, so‘z o‘yini usuli bilan kulgi paydo bo‘ladi va askiya vujudga keladi.

Beshinchidan, xalq og‘zaki ijodi badiiy adabiyotning tarkibiy qismidir. “Badiiy” so‘zining go‘zal, ajoyib ma‘nolarga ega bo‘lishi lug‘atlarda qayd etilgan. Asar matnini go‘zal qilib turadigan omil esa, ko‘pincha, badiiy tasvir vositalariga bog‘liq. Badiiy tasvir vositalarini mutaxassislar “badiiy san‘atlar”, “tasvir vositalari”, “she‘r san‘atlari” deb ham ataydilar. Ularning sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a kabi o‘nlab turlari mavjud. Aslini olganda, har bir badiiy san‘at namunasi ham o‘ziga xos kashfiyot hisoblanadi. Ertakchi tasvirlayotgan malikaning go‘zalligini o‘n to‘rt kunlik oyga o‘xshatadi. Qiz shu qadar latofatga ega bo‘ladiki, kulsa, atrofga gul, yig‘lasa, dur sochiladi. U yurganida oyog‘i ostidagi izlar o‘rnidan rayhon, jambillar o‘sib chiqadi. Doston qahramonlari shu qadar jahldorki, g‘azabga to‘lganida mo‘ylovining ustini qirov bosadi, tikilganida tog‘- Toshlar qumdek maydalanib ketadi.

“Xalq og‘zaki ijodi – so‘z san‘ati” deganimizda, shuningdek, ertakchi, baxshi, qo‘shiqchi, askiyaboz, latifachi ijrochilarning tinglovchilarga bag‘ishlayotgan ma‘naviy lazzatini ham unutmaslik lozim. Xalq qo‘shiqchilarida aks etgan his-tuyg‘u, ichki kechinmalar; ertaklardagi g‘aroyib voqyealar; dostonlardagi go‘zal tasvirlar, eng avvalo, zargarona tanlangan so‘zlardan iboratligi, ikkinchidan, ularning mahorat bilan ijro qilinishi

asrlar davomida xalqimizga zavq bag‘ishlagan. Shuning uchun ham mazkur asarlar o‘zbek xalqi ma’naviy xazinasining bebaho qadriyatlari sifatida hamisha e’zozlangan.

### **Nazorat savollari**

1. Folklorshunoslikning mustaqillikdan keyingi yutuqlari nimalarda ko‘rinadi?
2. O‘zbek folklorshunosligida dolzarb mavzular sifatida nimalarni qayd etasiz?
3. O‘zbek folklorshunosligining dunyo ilm-fanidagi o‘rni to‘g‘risida qanday qarashlar bor?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida so‘zlangan nutq. “Xalq so‘zi” gazetasi 1999-y. 9-noyabr.
3. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-sonli Farmoni.
4. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан. – 410 с.
5. Mirzayev T: Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS ASA. 2013.
6. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi.–Toshkent: Fan, 2010. – 307 b.
7. Jo‘rayev O‘zbek xalq samoviy afsonalari. - Toshkent.: "Fan", 1995;
8. Turdimov Sh. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. –Toshkent: Fan, 2011. – 240 b.
9. Eshonqul Jabbor. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. –Toshkent: Fan, 2011. – 304 b.

## GLOSSARIY

**Obraz** - soʻzning oʻzagi “raz” (chiziq) boʻlib, undan “razit”(chizmoq, yoʻnmoq, oʻymoq), undan “obrazit”(chizib, oʻyib, yoʻnib shakl yasamoq) paydo boʻlgan. Ana shu “obrazit” soʻzidan “obraz” atamasi vujudga kelgan. Bu soʻz “umuman olingan tasvir” maʼnosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashtirilgan xususiyatni oʻzida gavdalantirgan hodisadir.

**Badiiylik** - hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini taʼsirlantiradigan, unda tasavvur uygʻotadigan qilib tasvirlash. Badiiylik barcha sanʼat turlariga xos hodisa.

**Badiiy toʻqima** - obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqyealarni oʻylab topishdir.

**Etnografiya** – etno... va ... grafiya, etnologiya, xalqshunoslik — jahondagi barcha xalqlarning, etnik birlikshst turli tiilari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlarini, moddiy va maʼnaviy taraqqiyot darajasidan qatʼi nazar, teng holda oʻzaro tafovuti yoki umumiyliigi va oʻxshashligini, ularning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganuvchi maxsus fan sohasi.

**Folklor** – Folk – xalq, Lore – bilim, donishmandlik, yaʼni Folklore – xalq donishmandligi maʼnolarini ifodalaydi. Ilk marotaba Vilyam Toms tamonidan yevropa dehqonlarining anʼanalari, qadimiy xalq sheʼriyati, urf-odat, marosim va etiqodlarini anglatuvchi atama sifatida qoʻllanilgan. Oʻzbek folklorshunosligida xalq ogʻzaki ijodini anglatadi. Ayni paytda xalq ijodiyatining barcha turlari ham folklor deb yuritiladi.

## TEST SAVOLLARI

1. Prezident Islom Karimovning “Alpomish” haqidagi fikrlari qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- A. “Alpomish” – o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan... qahramonlik qo‘shig‘idir
- V. “Alpomish” da xalqimiz tarixining noyob sahifalari o‘z ifodasini topgan.
- S. O‘zbekning qanday buyuk xalq ekanligini bilmoqchi bo‘lgan “Alpomish”ni o‘qisin.
- D. “Alpomish” dostoni xalqimiz madaniy merosining nodir namunasidir.

2. Xalq og‘zaki ijodi fanining mazmuniga berilgan ta'rif qisqacha javoblarning qaysi birida to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Xalqning urf-odatlarini, rasm-rusumlarini o‘rganuvchi fan
- V. Xilma-xil janrlardan tarkib topgan og‘zaki so‘z san'ati bo‘lib, muayyan xalqning dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiruvchi fan
- S. Tilshunoslik qonunlarini o‘rganuvchi fan
- D. Badiiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini, rivojlanish qonuniyatlari va xarakterini, taraqqiyot bosqichlarini o‘rganuvchi fan.

3. Qo‘shiq janrining ta'rifini aniqlang.

- A. So‘z o‘yini ko‘chma ma’noli so‘z va janrlarni ilg‘ab olish va unga javob topa bilish, sha'ma qilish san'ati
- B. Hayot haqiqati bilan bog‘liq, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oya tashuvchi janr
- C. Turkiy «qo‘shmoq» fe‘lining o‘zagidan yasalgan bo‘lib, misraga misrani qo‘shib kuylash, aytish ma'nosini anglatuvchi og‘zaki lirik turga mansub mustaqil janr
- D. Syujet diologi asosida qurilgan haja va yengil yumorga moyil mubolag‘ali tasvirlanishi bilan ajralib turuvchi janr

**4. Bug‘doy aytar olaman,  
To‘ylarga ko‘p yarashaman.  
O‘qlovlarga yovoshaman,**

## **To'lmadingmi, qora daryo?**

Ushbu to'rtlik qaysi qo'shiq turiga mansub?

- A. O'rim qo'shiqlari
- B. Yanchiq qo'shiqlari
- C. Sog'im qo'shiqlari
- D. Charx qo'shiqlari

5. Xalq og'zaki badiiy ijodining yozma adabiyotdan farq qiluvchi xususiyatlari ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A. Ommaviy og'zakilik, anonomik, variantlilik, o'zgaruvchanlik
- B. Tiniqlik, mubolag'aga o'xshatish
- C. Tarixiy, obrazlilik, ramziylik
- D. Epiklik, afsonaviylik, majoziylik

6. Javoblarning qaysi birida sehrli ertaklarning ta'rifi to'g'ri berilgan?

- A. Uydirmalar asosiga qurilgan, qahramonlarning xatti-harakatlari sehr, jodu, mo'jiza, xayoliy obrazlar bilan bog'langan asarlar
- B. Axloqiy norma hamda odob haqida yuzaga kelgan fikrlarni izohlovchi, ta'limiy xarakterdagi majoziy hikoyat
- C. Hayvonlar personajlaridagi insoniy harakat va munosabatlar aks etgan asarlar
- D. Hayotiy voqyealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janrlaridan biri

7. Javoblarning qaysi birida maishiy ertaklar keltirilgan?

- A. «Davlatli kelin», «Tohir va Zuhra», «Vafodorlik»
- B. «Mehrigiyo», «Oltin tarvuz», «Tilla baliq»
- C. «Semurg'», «Ilon pari», «Kenja botir»
- D. «Pahlavon Rustam», «Qilich botir», «Olmos botir»

8. **Bosma tikkan botir qiz,**

**Jimalay tikkan chevar qiz.**

**Sanama tikkan sardor qiz,**

**Ilma tikkan ilgir qiz.**

Ushbu qo‘shiq mazmunan qanday nomlanadi?

- A. Yanchiq qo‘shig‘i
- B. Charx qo‘shig‘i
- C. Bo‘zchi qo‘shig‘i
- D. Kashta qo‘shig‘i

9. Tarixiy rivoyatlar javoblarning qaysi birida ko‘rsatilgan?

- A. Anda jon qoldi», «Qo‘ng‘irot»
- B. «Devonqala», «Kalta minor»
- C. «Navoiy bilan cho‘pon», «Oltin uzuk»
- D. «Kayumars», «Hazrati Xizr»

10. Quyidagi afsonalarning qaysi birida sof sevgi, muhabbat vafodorlikni tarannum etish g‘oyasi ulug‘lanadi?

- A. «Shirin qiz» afsonasi
- B. «Xazorasp» afsonasi
- C. «Devqal’a» afsonasi
- D. «Hazrati Xizr» afsonasi

## **2- Mavzu: Mavsumiy va oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati**

**Reja:**

1. Marosim folklor va uning turlari.
2. Mavsumiy marosimlar.
3. Oilaviy marosimlar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** mavsumiy marosimlar, oilaviy marosimlar, Sust xotin, Gurgak, Choymomo, Oblo Baraka, motam marosimi.

**1.Marosim folklor va uning turlari.** Marosim folklori namunalari folklorning eng qadimiy janrlari sirasiga kiradi. Folklorshunoslikda marosim folklori janrlarini ikki katta guruhga ajratish an'anasi mavjud. Bu turlar quyidgi ko'rinishga ega : 1) mavsumiy marosimlar folklor. 2) oilaviy marosimlar folklori.

Mavsumiy marosimlar yil mavsumlarining almashinuvi avvali va oxiri, ma'lum bir xo'jalik turlarining bo'lanib yakun topishi, ob-havo bilan bog'liq mavsumiy marosimlarni o'z ichiga oladi. Mavsumiy marosimlarning aniq vaqti, belgilangan o'tish muddatlari mavjud va ular bir oila yoki jamoaga tegishli bo'lmay butun xalq ommasiga tegishlidir.

«Mavsum» deganda, asosan, yil fasllari nazarda tutiladi. Binobarin, mavsum qo'shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog'liq bo'ladi. Marosim esa diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in demakdir. U bayram umumxalq shodiyonasi, tantana kun ma'nosini ifodalaydi. Ma'lum bo'ladiki, «marosim» tushunchasi «bayram» so'zi ifodalagan ma'nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqea bilan bog'lanishi mumkin. Bu tadbir oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo'lishi lozim. To'g'ri, biz, ko'pincha, «bayram marosimi» birikmasini qo'llashimiz mumkin, ammo bu holatda gap oilaviy marosim haqida emasligi ta'kidlanadi.

Dunyoda bironta xalq yo'qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlanmasin. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o'tkaziladi. Katta shodiyonalar rejalashtiriladi. Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi, o'yin-kulgilar, sayillar, tomoshalar, musobaqalar uyushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o'rtasidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to'ldiradi, mukammallashtiradi.

Oilaviy marosimlar esa aksincha bir oila va oila a'zolari hayotidagi barcha mavsumlar o'zgarishlarni o'z ichiga qamraydi. Oilaviy marosimlar

mazmuni tug‘ilig‘, to‘y va motam marosimlaridan iborat va bu marosimlarda ijro etiluvchi folklor namunalari oilaviy marosimlar tarkibiy qismini tashkil etadi.

## **2. Mavsumiy marosimlar.**

O‘zbek mavsumiy marosimlarining boshlanishi bevosita Navro‘z bayrami bilan aloqador. Navro‘z yangi yil, yilboshi deb ham yuritiladi. Ya'ni qish va yoz (ikki qutb)ning o‘zaro kurashuvi, qish tomonning yengilib, chekinishi natijasida kirib keladi, degan dualistik qarash ushbu marosimda eng tayanch tasavvur hisoblanadi. Navro‘zni kutib olish, tantana qilish jarayonida o‘tuvchi barcha marosim halqalarida ana shu kurashni tasvirlashga, ifodalashga yo‘naltirilgan. Ushbu o‘rinda Farg‘onada o‘tuvchi Navro‘z bayrami haqidagi xitoy manbasidan keltirgan ko‘chirma muhim ahamiyatga ega: “Har yangi kelayotgan yilning boshida podsho va darg‘alar bosh xalq ikki guruhga bo‘lingan. Har bir guruh bittadan vakil saylab, unga jang kiyimlarini kiydirib o‘zaro jang qildirishgan, qolganlar esa raqib tamonga toshu kesaklar otib o‘z jangchilariga yordam berib turishgan. Jang tamonlarning biri halok bo‘lgunicha davom qilgan. So‘ngra jang natijalariga qarab yangi yilning qanday kelishini taxmin etilgan” (166. –S. 282–283).

S.P.Tolstov ushbu marosimni ibtidoiy xalqlar orasida keng tarqalgan ikki fratriyning marosimiy musobaqasi ekanligini yozar ekan, Sharqiy Turkistondagi Kuchi shahrida yangi yilni kutishda yetti kun davomida o‘tuvchi qo‘chqor, ot, tuya urishtirib yilning qanday kelishini aniqlash tantanalari va O‘rta Osiyodagi uloq (ko‘pkari) hamda turkmanlar orasidagi “ko‘k bo‘ri” to‘y marosimini ham ana shu tizimda tahlil etadi. (166. –S. 284).

Biz uchun e‘tiborli jihat ushbu o‘rinda ko‘pkari (uloq) va ko‘k bo‘ri nikoh to‘yi marosimidagi bo‘ri va uloq (echki) obrazlaridir.

Ko‘k bo‘ri marosimida uloq yoki qo‘zichoqni (aslida uloq varianti to‘g‘ri) otda o‘ngarib qochayotgan kelinni kuyov o‘z jo‘ralari bilan ta‘qib qilib,



undan uloqni olib qo'yishi kerak (Qozoqlar o'rtasidagi qiz quvdi marosimi ham ana shu tizimda turadi. Faqat u o'rinda uloq unutilgan). Ushbu marosimning tub asoslari ham yil fasllari o'rtasidagi qutblar holati, kurashi va birligiga ulanadi. Uloq – ko'klam, bo'ri esa qish timsoli. Qiz – uloq – ko'klam, yigit – bo'ri – qish yaxlit tizimni tashkil etadi. Uloq (ko'pkari) o'yinining qish vaqti o'tkazilish an'anasi ham bekor emas. Boysun tumanining olis qishlog'ida Navro'z kuni ijro etiluvchi "Gurgak" o'yini ham bevosita ana shu tasavvurlarga bog'liq (87. –B.148).

Respublikamizning bir qator viloyatlarida turli shakl-ko'rinishlarda hozirgacha amal qilib kelayotgan "Boychechak" marosimi ham ushbu tizimning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi.

Marosimni nisbatan to'laroq halqalarini Namangan viloyatining Chortoq tumani hududida kuzatish mumkin. Bu yerda bolalar erta ko'klam boychechakni topib, bir guruh bo'lib, jo'raboshi yetagida xonadonma-xonadon kezib chiqishadi. Boychechakchilar har bir xonadon darvoza oldida to'xtaganda, jo'raboshi ushbu qo'shiqni kuylaydi:

– Boychechak aytib keldik eshigingizga,  
Xudoim o'g'il bersin beshigingizga, –

Guruh esa:

– Bota, bota-bo, boychechak,  
Uyingizga choch tilla.  
Iloyim o'g'il bersin,  
Otginasi Rahmatilla,

Uy egasi ko'rinish berganda:

– O'tirib chiqing,  
O'tirib chiqing,  
Yog'och tovoqni to'ldirib chiqing, –

deydilar.

Xonadon sohibi jo'raboshi tutib turgan boychechakni ko'rib, tavob qilib, himmatiga yarasha ul-bul boychechakchilarga beradi. Uy egasi xasislik

qilib hyech narsa bermasa, boychechakchilar:

O‘qim, o‘qim,

Qozoningga ...! –

deb yomon tilak bildiradi.

Biz ushbu marosimni dunyoning boshqa mintaqalarida yashovchi xalqlaridagi ko‘klam marosimlari bilan qiyosan o‘rganib, uning qadimiy ko‘rinishini tikladik (216. –B. 40–41).

Qadimda o‘tgan “Boychechak” marosimida qish va ko‘klamning kurashini ifodalovchi sahnalar bo‘lgan. Boychechak tutgan jo‘raboshi ko‘klam siymosida o‘z sheriklari – aniqrog‘i, jangchilari bilan xonadonma-xonadon yurib qishni haydagan. Qish siymosi va jangchilarini ifodalovchi tomon qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Bir-bir chekinib xonadonlarni va nihoyat butun qishloqni tark etgan. Qish va ko‘klam o‘rtasidagi asosiy kurash katta dalada bo‘lgan. Bunda qish va yoz tomon ramziy jang qilib, aytim-qo‘shiq kuylab bahslashganlar.

Xorazmda sumalak sayli bilan aloqador bo‘lgan “Ashshadarozi” o‘yini (169. –B.43–44) va unda aytiluvchi laparning tub asoslarini qish va yoz munozarasi sifatida baholash o‘rinli. Ushbu laparni marosimdan butkul ajralib sof san'at namunasiga aylangan versiyasi sifatida Farg‘ona vodiysida keng yoyilgan “Sochingni uzun deydilar” laparini keltirish mumkin. Ushbu lapar matnida “qish”ning so‘rog‘i va “ko‘klam”ning javoblari asl mohiyatga yaqin turibdi. Laparda yigit qizning sochi, qoshi, ko‘zi, yuzi, beli, qanday ekanligini so‘raydi. Qiz esa ko‘klamdagi tabiat tasviri orqali o‘zini ta'rif etadi (27. –B.90–92). Bizning nazarimizda, “Kichkinajon-kichkina” qo‘shig‘i ushbu aytishuv, bahsning so‘nggi nuqtasi bo‘lgan. Ya'ni qo‘shiqni kuylab, o‘rtadagi raqqosni ma'lum obrazlarga taqlidan kichrayib borishi barobarida tariq timsoliga kelishi, buni raqsdan ko‘rsatishi ko‘klamning qishni yengib urug‘ (tariq) holatiga keltirishini ifoda qilgan.

Xalqimizning yoz(ko‘klam) va qish(kuz) haqidagi tasavvurlar tizimini

quyidagi jadval orqali yanada aniqroq ifoda etish mumkin (... shaklga qarang)

Tavsifi	Yoz (ko'klam)	Qish (kuz)
Marosimi	“Boychechak” marosimi	Ko'k bo'ri (ko'pkari, uloq xalq o'yini )
O'simlik timsoli	Boychechak	Urug' (tariq, bug'doy)
Zoomorfik timsol	Echki (uloq)	Bo'ri
Insoniy timsol	Qiz	Yigit
Asosiy qo'shiqlari	“Boychechak”, “Ashadorozi”, “Qoshingni qaro deydilar” o'yin raqslari.	“Kichkinajon kichkina”, “Gurgak”.
Muqaddas taomi	Sumalak	Yorma(halim)

Ushbu jadval yoz va qish marosimlar tizimi, ularning o'tish tartibi, ijro etiluvchi qo'shiq raqslari va timsollarini aniq ko'rsatadi.

S.P.Tolstov o'zi keltirgan faktlarni tahlil etar ekan, ularning tub asosini zoorastrizmdan ham ancha qadimiyroq bo'lgan ibtidoiy odamning animistik tasavvurlari zahirida an'analashganligini yozadi (166. –S. 291). Bu esa bizning “Go'ro'g'li” turkumi o'zagidagi syujet, yetakchi motiv va asosiy obrazlarning animistik dunyoqarash va e'tiqodlarga bog'liq talqin etganimiz to'g'ri ekanligini ko'rsatish barobarida, turkumning tub

manbalari qadim-qadimdan kelayotganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**YOMG‘IR YOG‘DIRISH MAROSIMLARI** – Bahorda o‘tuvchi mavsumiy marosimlar tizimida yil qurg‘oqchilik kelgan mavsumlarda o‘tuvchi yomg‘ir chaqirish bilan bog‘lik Sust xotin, Sut xotin, So‘z xotin, Sel xotin, Suv xotin, Chala xotin, Ko‘sam-ko‘sam, Chayla qazon deb nomlanuvchi marosimlar yomg‘ir yog‘dirish marosimlarini tashkil etadi. Keltirilgan atamalar mohiyatan bir marosimning turli hududlarda aytiluvchi o‘ziga xos nomlanishidir. Masalan, “Sust xotin” marosimi quyidagi tartibda o‘tgan. Qurg‘oqchilik davri yosh-yalanglar yig‘ilib bir bolani eshakka chappa o‘tqazib, qo‘liga suv to‘la kadi ushlatib, yoniga ikki toshbaqani oyog‘idan bog‘lab osib qo‘yishgan va uyma-uy olib yurishgan. Bola biror uy oldiga kelsa: *“Voy, jonim! Kuydim-ey! Kuydim-ey!”* – debqichqirgan. Uy egalari uning ustiga suv quyishgan. Yigitlar:

Havo yohmas bo‘larmi,

Tomchi tommas bo‘larmi,

Saksondagi kampirlarni,

Suv oqizmas bo‘larmi,

Sust xotin-o, sust xotin,

Ko‘ylaklari bo‘z xotin...

deb qo‘shiq kuylashgan. Xonadon egalari yigitlarga turli tortiqlar berishgan. “Sut xotin” marosimida bir xodaning teppa qismiga cho‘p bog‘lab, ayol kiyimini kiydirib, “Sut xotin” qo‘shig‘ini kuylab, yetti uyga olib borishgan. Xonadonlardan yig‘ilgan bo‘g‘doy un qilinib maxsus taom tayyorlangan. “Sel xotin” marosimida boshiga g‘alvir kiygan uch xotin qo‘shiq aytib xonadonma-xanodon yurishgan. Chala xotin, Ko‘sam-ko‘sam, Chayla qazon marosimlarida ham xotin obrazi asosiy o‘rin egallaydi. “Sust xotin” marosimlari qadim ajdodlarimizning “osmon suvlari”, yog‘in-sochin egasi sifatida qaralgan Tishtriya yulduzi kulti bilan bog‘liq marosimlarning aks-sadosi sifatida baholanadi.

**YOZGI MAROSIMLAR FOLKLORI** – Yozda o‘tuvchi marosimlar

bevosita dehqonchilik mavsumining yoz davriga to‘g‘ri keladi. Yozda g‘allalar o‘rib bo‘lingach yig‘ilgan hosilni yanchib olish uchun mavsumda kerakli shamolning bo‘lishi yoki aksincha yil qurg‘oq kelib chang-to‘zon quyinning to‘xtashi uchun maxsus marosimlar o‘tkazishgan. “Choymomo”, “Yalli momo” shamolni to‘xtatish uchun uyushirilgan marosimlar bo‘lsa, “Haydar”, “Ajdar bobo”, “Yalang‘och ota” kultlari bilan bog‘liq irim-sirimlar shamol chaqirishga bog‘liq tashkil etilgan. “Oblo baraka”, “Haqullo” marosimlari esa g‘alla o‘rimini tugatish va bug‘doyni yanchib olish davomida tashkil etilgan. Bu marosim va irim sirimlarda kuylanuvchi qo‘shiqlar yozgi marosimlar folklori hisoblanadi. “Choy momo” marosimida besh yoki yetti nafar bo‘y qizlar chorshanba, payshanba, juma kunlari uyma-uy yurib un va bug‘doy yig‘ishadi. Eng orqada yuradigan qiz keli sopini ko‘tarib oladi. Uning etagiga bog‘langan spurgi sudralib boraveradi. Qizlar quyidagi qo‘shiqni kuylashgan:

Choymomo o‘libdi,  
O‘g‘li yetim qolibdi,  
Bosa-bosa beringlar,  
Bosilib qolsin bu shamol.  
Uga-uga beringlar,  
Ugilib qolsin bu shamol.

Marosimning boshqa bir ko‘rinishida tadbirni boshiga chodir yopingan kampir boshqaradi. Boshqa xududda marosimda uch kampir bosh bo‘lib, uning izidan yettita qiz yuradi. “Yalli momo” marosimida ushbu qo‘shiq kuylanadi:

Yalli momo, yalli-yo,  
Yalli momo o‘ldiyo,  
Quduq suvi topolmay,  
Sirka bilan yuvdik-o,  
Bo‘zdan kafan topolmay,  
Bo‘yra bilan kshmdik-o!

Yalli momo, yalli-yo,  
Yalli momo o‘ldi-yo,  
Yalli momo gullari,  
Xazon bo‘lmay so‘ldi-yo,  
Shum shamolning onasi,  
Yalli momo o‘ldi-yo!

“Haydar” shamol piri Haydarni chaqirish uchun aytiladigan aytimlarga ega:

Haydar-o, Haydar,  
Shamolingni qaytar,  
Bolang quduqqa tushibdi,  
Uying qayg‘uga to‘libdi,  
Haydar, Haydar, keloqol,  
Shamol bo‘lib esaqol,  
Bug‘doyi menga foyda,  
Samonini olaqol!

Haydarga atab aytiluvchi aytimlarning el orasida turli variantlari mavjud. “Ajdar bobo”, “Yalang‘och ota”ga nisbat berib aytiluvchi aytimlar ham el orasida mashhur.

“Oblo baraka”, marosimi bevosita bug‘doy o‘rimi so‘ngida, oxirgi bashoqlarni o‘rish vaqti o‘tkazilsa, “Haqullo” bug‘doyni yanchish payti uyushtirilib ba'zi hududlarda “chosh qurdi”, “chosh oshi”, “xirmon oshi” deb ham yuritilgan.

**3. Oilaviy marosimlar.** Oilaviy marosimlar tizimi ham o‘z navbatida ikki katta guruhga ajralardi. 1) To‘y marosimlari folklori. 2) Motam marosimlari folklori.

**To‘y marosimi folklori.** To‘y dunyoning barcha xalqlariga xos marosimdir. «To‘y» atamasi «to‘ymoq», «el-yurtga ziyofat bermoq» ma'nolari orqali muayyan kishi hayotidagi muhim burilish nuqtasini anglatadi. Binobarin, to‘y ham moddiy, ham ma'paviy oziqlanish

marosimidir.

o'zbek to'y marosimlari nikoh to'ylari bilangina chegaralanib qolmay. balki xatna (sunnat), beshik to'yi kabilardan ham tashkil topgandir. Bu marosimlar turli munosabatlar bilan o'tkazilganligi tufayli ularda ijro etiladigan folklor janrlari ham xilma-xillik kasb etadig

Beshik to'ylari folklori. Odatda, beshik to'yi oiladagi birinchi (to'ng'ich) farzand uchun o'tkaziladi va u tantanali kechadi. Ba'zan oilaning moddiy turmush darajasi bilan bog'liq xolda bu tartib o'zgarishi xam mumkin.

Nikoh to'ylari folklori. Uzbek to'y marosimlari sirasida nikox to'ylari rasm-rusmlarga, irim-sirim-larga boyligi, folklor materialining rang-barang-ligi bilan aloxchida ajralib turadi. Bunday rang-ba-ranglik hamda ko'tarinki ruh marosimning maqsad va vazifasi bilan — insonping o'z hayotining yangi davri-ga qadam qo'yishini alohida quvonch orqali nishonla-shi bilan bog'liqdir. Haqiqatan xam, nikoh to'yi yigit va qizlar hayotida ro'y beradigan eng baxtli, eng unu-tilmas marosim sanaladi. Chunki mana shu marosimdan so'ng ular xayotga boshqacha ko'z bilan, ya'ni ham jismonan, ham ma'nan kamolotga erishgan kishilar ko'zi bilan qaraydilar.

Nikoh to'yi marosimi barcha uzvlari bilan yaxlit olib qaralsa, anchagina katta muddatni o'z ichiga ola-di. Chunki marosim qiz tanlash voqyealaridan boshla-nib, nikoh kechasidan birmuncha muddat keyin o'tadigan kuyov chaqiriq marosimi bilan yakunlanadi.

Uzbek nikoh to'ylarining birinchi bosqichiga o'lan va lapar kabi folklor janrlari mansubdir.

Ulan janri. Ulan asosan o'tmishda ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik tarzida hayot kechirgan o'zbek urug'-lari o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, u qiz uzatar oq-shomidan bir yoki bir necha kun ilgari qizning uyida o'tkaziladigan «qiz oqshomi», «qizlar majlisi» kabi turli nomlar bilan nishonlanadigan tantanada ijro etilgan. Ulan shahar hamda qadimdan o'troq tarzda hayot kechiruvchi aholi o'rtasida uchramaydi. M.

Alaviya to‘rri ko‘rsatib o‘tganidek, to‘yda lirik qo‘shiqlar ijro etiladigan, umuman, lirik qo‘shiqlar rivojlangan joylarda o‘lan kam aytiladi. Ayrim hollarda qiz uzatar kechasi kuyovning uyida o‘tkaziladigan bazmlar-da ham o‘lan ijro etilishi mumkin. Bunda o‘lan to‘yni qizitish, mehmonlarning kayfiyatini ko‘tarish maqsadida aytilgan. Ammo «qiz oshi» da ijro etiladigan o‘lanlar umumozbek to‘ylari uchun barqaror an’anadir.

Janrning paydo bo‘lishi masalasida ham o‘zbek folkloristikasida aniq bir fikr yo‘q. M. Alaviya bu masala xususida to‘xtalib, o‘lan janri qadimda yor-yor, lapar janrlari bilan bir bo‘lib, keyinchalik ular turli joylardagi traditsiya, turmush tarzi bilan bog‘-liq holda differentsiyalashib, mustaqil janr holiga kelib qolgan, deb yozadi<sup>44</sup>. Lapar va o‘lan janrlarining genetik jihatdan aloqadorligi u qadar shub-xa uyg‘otmasa ham, lekin yor-yor va o‘lan janrlarini tarixan bir hodisa sifatida olib qarash ishonarli emas. Farg‘ona vodiysining ayrim joylarida o‘lan misralari oxiriga «yor-yor» so‘zini radif qilib ishlatish hollari bu ikki janrning o‘tmishda bir bo‘lganligini bildirmaydi.

Chunki yor-yor va o‘lan janrlari ijro usuli jihatidan keskin farqlanadilar. Umuman, o‘lan, lapar, yor-yor janrlarining paydo bo‘lishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va o‘zgachaliklar masalasi alohida tadqiqot talab qiladi.

Ulan ijrosida erlar va ayollarning gozma-yuz turi-shi, ularning so‘z vositasida mubohasa yuritishlari ushbu janrning tarixan islom ta’siri u qadar kuchli bo‘lmagan ko‘chmanchi turkiy xalqlar, jumladan, ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari orasida vujudga kelganligidan dalolat beradi.

Ulan janrining ijrosi ommaviy xarakter kasb etib, u professional o‘lanchilar tomonidan boshlanib, ular tomonidan boshqarib borilsa ham, ko‘p hollarda, unga boshqa kishilar ham qo‘shilishlari mumkin.

O‘lanning tematik doirasi keng bo‘lib, unda ishqda vafodorlik, yor visoliga mushtoqlik motivlari yetakchilik qiladi. Ulan aytishni, odatda, yigitlar boshlab berishadi.

Yigit:



Qarg‘a deyman, ko‘zingdan, qarga deyman,  
Qarg‘a uya soladi jarga, deyman.  
Ko‘rmaganga ko‘p vaqt, oylar o‘tdi,  
Ulan bilan so‘rashay — «horma» deyman.

Qiz:

Ulanlarim, ko‘zingdan, o‘lanlarim,  
Sen bo‘lding shu dunyoda gumondorim.  
Sen bo‘lsang shu dunyoda gumondorim,  
Kuya-kuya kul bo‘ldi suyaklarim.

Ulan poetik jihatdan ham qator o‘zgachaliklarga ega bo‘lib, ulardan biri tekstning izchil to‘rtlik shaklidagi band tuzilishiga ega ekanligidir. Har bir band esa aaba tarzida qofiyalanadi. Ulanlarning ak-sariyati ritmik jihatdan o‘n bir hijoli vaznga ega.

Xulosa qilib aytganda, o‘lan to‘y marosimining mus-taqil janri sifatida Toshkent, Namangan, Leninobod oblastining Asht rayonidagi «j» lovchi o‘zbeklar yashay-digan qishloqlarda jonli yashashda davom etyapti.

Lapar. Lapar to‘y marosimining birinchi bosqichiga mansub bo‘lib, ijrochilar sostavi, ijro usuli jiha-tidan o‘lanlarga yaqin turuvchi janrdir. Ammo u o‘zi-ning.iisbatan voqyebandligi hamda hazilga boyligi jihatidan o‘lanlardan farqlanadi. Mazkur janr Toshkent atroflaridagi qishloqlarda, shuningdek, Ja-nubiy Qozog‘istonda yashovchi o‘zbeklar o‘rtasida keng tarqalgan.

Lapar asosan kelinning xonadonida o‘tkaziladigan «qizlar bazmi»da ijro etiladi. Buni ayrim joylar-da «lapar kechasi» deb ham yuritishgan. Ushbu bazmda kizlardan tashqari ayollar va kuyov tomonidan yigitlar ham ishtirok etishgan. Bazmni boshqarish keksaroq, tajribali va so‘zga chechan ayollardan biriga topshi-rilgan. U kechada odobsizlik qilgan yoki qo‘pol mazmun-dagi laparlarni aytgan yigitlarni majlisdan hay-dab chiqargan. Shu sababli lapar aytishuv kechalari juda tartibli va yoqimli kechgan.

To‘ylardagi yor-yorlar, o‘lan aytishlar, kelin salomlar xalq poetik ijodining mumtoz namunalari bo‘lib qolgan. Hayot tajribasi oilaviy turmush totuvlikdan boshlansa, mehr yetakchi bo‘lsa, keyingi hayot ham inoqlikda o‘tishini tasdiqlagan. Shuning uchun kuyov-kelin ko‘nglini bir-biriga yaqin qilish orzusi qayta-qayta tilga olinadi:

*Shoyi ko‘ylak yengiga*

*Tut qoqaylik yor-yor,*

*Kelin-kuyov ko‘ngliga*

*O‘t yoqaylik yor-yor.*

O‘LAN – xalq og‘zaki ijodidagi omaviy janri; qo‘shiq turi. O‘lanlar to‘y-yig‘in, sayl, bayramlarda kishilarning tarafma-taraf bo‘lib aytuvchi qo‘shiq turi hisoblanadi. Nikoh to‘yida kelin tamon kuyov taraf bilan bahslashsa, sayl-bayramlarda mahalla, ovul yoki qishloq ahli boshqa mahalla, ovul, qishloq vakillari bilan musobaqalashgan. O‘lanlar yakkama-yakka yoki guruh bo‘lib aytilgan. Aytuvchilar raqiblarini “harf”, deb atashi urfga kirgan. Qadimda o‘lan nikoh to‘yi marosimlari tarkibida yor-yor” bilan bir umumiy ohangda paydo bo‘lgan. Fikrimizni “yor-yor”dagi “hay-hay o‘lan” an’anaviy boshlama va “Alpomish” dostoni tarkibida kelgan o‘lan shakli va har ikki janr ohangini ta’min etuvchi o‘n bir bo‘g‘inli yetakchi vazn o‘lchami tasdiq etadi.

Daryoga tosh otmanglar,

Botar ketar yor-yor.

Uzoqqa qiz bermanglar,

Olar ketar yor-yor.

Ushbu “yor-yor” bo‘g‘inlari hisoblab chiqilsa ( $7+4+2=13$ ) o‘n uch bo‘g‘inli o‘lcham hosil bo‘ladi. O‘lchamdan “yor-yor” qo‘shimchasi olib tashlansa, o‘n bir vaznli o‘lan vazni hosil bo‘ladi. Aksincha o‘lanning har bir misrasiga “yor-yor” qo‘shsak, aynan “yor-yor” she’riy o‘lchamiga ega bo‘lamiz. “Alpomish” dostonida o‘lanning ayni shakli ham kelgan.

Folklorshunoslikda o‘lan atamasining kelib chiqishi borasida ikki fikr ilgari surilgan. Birinchi fikr keng ommalashgan bo‘lib, unda o‘lan “ulashmoq”, ya’ni “ula” fe’liga aloqador “bog‘lash”, “qo‘shish” ma’nolari ega va o‘zaro aytishuvda qo‘shiqni mazmunan bir-biriga ulashni bildiradi, deb izohlanadi. Ikkinchi fikr Ozarboyjon folklorshunosi Mirali Seyidovga tegishli. Olim o‘lan janri turkiy xalqlarning yashillik, yoshlik, oila ilohi O‘lang nomi bilan bog‘liq deb yozadi. Bu fikrni o‘zbek “yor-yor”laridagi “hay-hay o‘lan, jon o‘lan, o‘lan ko‘pdir” an’anaviy takrorlanuvchi murojoat ma’lum ma’noda tasdiq etadi. O‘lan janri nafaqat o‘zbeklarda, balki qazoq, turkman, uyg‘ur xalqlari orasida ham mashhur. Bu holat ushbu janrning qadimdan kelayotganligini dalillaydi.

O‘lan harflarning quyidagi ko‘rinishli an’anaviy chorlovlari bilan boshlangan:

Baland tog‘lar boshida tuman toshi,  
To‘y oldidan tortganim so‘qim oshi,  
Haddin bo‘lsa qani-kan, o‘lan boshla,  
Bu elatning man, degan keksa-yoshi...

Javob beruvchi:

Olti qizning ichida otim Anor,  
Anor suvin ichganda mehrim qonar,  
Mening bilan shu kecha aytsangiz o‘lan,  
Ikki betiz anorday gul-gul yonar.

Tuzilishiga ko‘ra o‘lanlar chorlov, tanishuv – hol-ahvol so‘rashish, asosiy bahs, xotima qismlardan tashkil topadi. O‘lanning chorlov, tanishuv, xotimalarini an’anaviy mazmunli to‘rtliklar tashkil etib, cheklangan miqdorda keladi. O‘lan asosini tashkil etuvchi bahs qismida badihago‘ylik muhim o‘rin egallaydi. Ushbu qismda raqibning harfiga munosib javob topib aytishi o‘lan janrining bosh talabi hisoblanadi. Kimki badihago‘y shoir, qumquloq qo‘shiqchi bo‘lib, vaziyaga, harfiga mos savol-javob qila olsa, g‘olib bo‘ladi.

Muhabbat mavzusi o‘lanlarda yetakchilik qiladi. Bu xil o‘lanlar mazmunan aytuvchi va tinglovchi uchun barobar tegishli bo‘lib, inson kechinmalari, o‘y-hayollarining hamma bop qoliplari bo‘lib yangraydi:

Oq olma, qizil olma pishmas ekan,  
Ikki yaxshi bir yerga tushmas ekan,  
Ikki yaxshi bir yerga tushganida,  
Umrining o‘tganini bilmas ekan.

O‘lanlarda aytuvchilarning bir-biriga bo‘lgan munosabati, dil izhorlar ham ifoda etiladi:

Doim mening minganim jiyron qashqa,  
Tamog‘imdan o‘tmaydi choydan boshqa,  
Tol chiviqday buralib sen turganda  
Ko‘zimga ko‘rinmaydi sendan boshqa.

Ba'zan harflardan birining tili toyib, quvligi tutib, odob doirasidan chiqib o‘lan aytsa:

Oting o‘zsin og‘ajon, oting o‘zsin,  
Qora qaychi tilingning uchin kessin,  
Yana qaytib shundayin o‘lan aytsang,  
It yaloqda osh ichib kuning o‘tsin,  
deb, tartibga chaqirilgan. Inson hayotida quvanch bilan g‘am egiz yuradi.

O‘lanlar orasida g‘amli aytimlar ham uchrab turadi:

Qora tog‘ning boshidan ko‘ch keladi,  
Qora yo‘rg‘a selkillab bo‘sh keladi.  
Qarindoshdan ayrilgan yomon bo‘lar,  
Qaro ko‘zga mo‘ltirab yosh keladi.

O‘lanlarda tabiat hodisalari, tasvirlari bilan kishi kechinmalarini qarshilantirish usuli keng ko‘llaniladi. Bu o‘rinda an'anaviy poetik ramziy obrazlarga tayaniladi, u yoki bu obraz vaziyat talabi bilan ramziy ma'no tashiydi:

Bu dunyoda ne qatti, jiyda qatti,

Boshidagi mevasi boldan totli.

Ota bilan onaning mehri qatti,

Tilab olgan bolasin pulga sotti.

Ushbu to'rtlikda jiyda daraxti va mevasining tabiiy xususiyatlari lirik qahramonning ota-onasi, taqdiri haqidagi fikr, xulosalarini aniq ifodalash imkonini bermoqda.

O'lanlarning qofiya tizimi asosan a,a,b,a shakliga ega. O'lanlarning kuylanish yo'li "yor-yor"larga yaqin, ayni paytda sokinligi bilan ajralib turadi. Go'zal, betakror obrazli ifodalari, inson diliga yaqin o'lanlar so'z san'atining o'ziga xos betakror janri hisoblanadi.

**Motam marosimlari folklori.** Motam marosimi folklorining katta qismini yig'i va yo'qlovlar tashkil etadi. Yig'ilar, odatda, dafn marosimi kunidan boshlab to «uch» yoki «etti» marosimigacha azadorlar yoki maxsus yollangan yig'ichi (go'yanda yoki nahvagar) tomonidan azaxonaga ta'ziya bildirib kelganlar oldida yig'i bilan ritual ijro qilinadi. Yig'i matnlari qat'iy turg'unlikka ega bo'lmaydi. Ular, odatda, bir martalik ijroga moslashgan. Sababi, yig'ilar mavjud holatdan kelib chiqib, badihatan kuylanadi. Yig'ilarga xos situativlik va improvizatsion sajiya ular ijrosiga yetarli ta'sir ko'rsatadi. Yig'ichi an'anaviy yig'ilarni ijro etar ekan, uning qaysidir misrasini yoki so'zlarini tushirib qoldirishi, o'zgartirishi yoki an'anaviy misralar yordamida yangi yig'i matnlarini yaratishi mumkin. Shu tariqa yig'ilarda variantlashish hodisasi ham kuzatiladi.

Yig'ilar tarkibida, albatta, yig'ini ifoda etuvchi «voy-voy-ey», «voy-dod-ey» kabi undov so'zlar hamda yig'ining kimga kim tomonidan qaratilganligini bildirib turuvchi undalmalar mavjud bo'ladi va ular yorqin ko'zga tashlanib turadi.

Yig'ilar kimga qaratilganiga, ya'ni marhum bilan yig'ichining qarindoshlik darajasiga qarab, mavzu jihatidan farqlanadi va ularning har biri alohida turkumni tashkil qiladi. Masalan, otaga, onaga, boboga, buviga, akaga, opaga, ukaga, singilga, farzandga, erga, xotinga, ammaga, xolaga, amakiga,

tog‘aga va boshqa har bir qarindoshlik rishtasi bilan bog‘langan kishilarga bag‘ishlangan yig‘ilar murojaat ob‘ekti, badiiy vositalari jihatidan o‘zaro farq qilinadi. Ularning har biri yakka, mustaqil yashaydi va kimning o‘limiga bag‘ishlanganligiga qarab o‘zaro birlashib, kattakon yig‘i turkumini hosil qiladi. Jumladan, otaga yig‘i, onaga yig‘i, boboga yig‘i, farzandga yig‘i va hokazo kabi poetik turkumlar shular sirasini tashkil etadi. Bu turkumlarga kiruvchi barcha yig‘ilar ma‘lum bir nisbiy mustaqillikka ega bo‘lib, jonli an‘anada yakka-yakka ijro etiladi. Chunki ular bosh qahramonga berilgan baho, hajmi, kim tomonidan kuylanishi jihatidan bir-biridan farq qilib turadi. Aytaylik, ota yig‘isi turkumiga kiruvchi yuzlab yig‘ilar yaratilganligi ma‘lum va ular alohida-alohida ijro etilishi kuzatiladi. Biroq ular qancha ko‘p bo‘lsa-da, ota o‘limiga bag‘ishlanganligi, marhum ota obrazini talqin etishi, unga xos ramziy belgilarni tashib kelishiga ko‘ra o‘zaro mantiqan birlashib turadi. Lekin ota yig‘ilari otaning oiladagi o‘rniga berilgan bahoga va o‘g‘il yoki qiz farzand tilidan kuylanganligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Binobarin, otaga bag‘ishlangan yig‘ilarda ota-quyoshga, ustunga o‘xshatilsa, ona-oyga, buloqqa o‘xshatiladi. Bobo-eski bog‘ning kundasiga, amma-eshikning tambasiga, xola gulu lolaga, farzand gulga yoki bulbulga tashbeh qilinadi. Shuningdek, ularga nisbatan qo‘llaniladigan sifatlashlar ham o‘zaro farq qiladi. Masalan, ona-«sutli ko‘lim», ota-«suyangan tog‘im», uka-«sho‘x bulbulim», opa-«sirdoshim», buvi-«uyimning farishtasi» deya sifatlanadi.

Yig‘ilarning mavzu doirasi keng. Yig‘ichining hayotiy tajribasi va ruhiy dunyosi bilan shartlangan yig‘ilarda o‘limga munosabat maishiy-falsafiy ruhda ifodalanib keladi. Yig‘ilarning mavzu doirasi marhumning shaxsiyati, oiladagi tutgan o‘rniga qarab belgilanadi. Xuddi shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mavzu leksik-grammatik takrordan ma‘lum bo‘ladi. Er o‘lsa-«vo, to‘ram», xotin o‘lsa-«vo, gulim» yoki «vo, uyim» deb, qarindoshlarga «jigarim» deya yig‘i beriladi.

Ota o‘limida otaga bag‘ishlab ijro etiladigan yig‘ilar motam folklori

namunalari orasida alohida turkumni tashkil etadi.

Orqamdagi yuksak tog‘im,

Otajonim, qaydasiz-a?

Bog‘imdagi gul chamanim,

Qiblagohim qaydasiz-a?

Otaga bag‘ishlab ijro etilayotgan bunday yig‘ilarda otaning oiladagi mavqeyi, uning xonadan boshlig‘i sifatida bolalariga g‘amxo‘rligi, pushti panoj va himoyachiligi alohida tilga olinadi.

Oila boshlig‘i bo‘lgan otaning hurmati yuksak, baland toqqa tenglashtiriladi. Farzandlar otaning pushti kamaridan bo‘lgani uchun uni ham yaratuvchi iloh kabi muqaddaslashtiradilar. Xalq orasida ota bilan bog‘liq e‘tiqodlar juda ko‘p. Shuning uchun bolalar ota o‘tirgan uyning tomiga chiqishni gunoh deb biladilar. Shu tushunchalar asosida yig‘ilarda ota «qiblagohim» deya ulug‘lanadi. Hatto ota sifatleri Olloh sifatleri bilan tenglashtirilib, unga qarata «mehribonim», «boshimdagi panohim» deya murojaat qilinadi.

Ota oilani birlashtirib turuvchi, unga har tomonlama bosh-qosh, moddiy ta‘minotchi bo‘lgani bois ko‘p hollarda uning o‘limidan so‘ng oila a‘zolari qiynalib qolishadi. Buni hatto bolalar o‘lim yuz bergan kundanoq his eta boshlaydilar va o‘z his-tuyg‘ularini yig‘i matnlarida ifodalar ekanlar, «boshidagi posboni», «oldidagi sarboni» o‘limidan qattiq aziyat chekayotganliklarini ta‘kidlaydilar. Otasiz oilalarda yuz beradigan boshboshdoqlik “buzilgan qo‘rg‘on”ga qiyoslanadi.

Ona vafoti munosabati bilan aytiladigan yig‘ilar ham talaygina. Ularda onaning mo‘tabar zot ekanligi, mehribonligi va fidoyiligi madh etilishi orqali ona o‘limiga achinish, bundan g‘am chekish holatlari ifoda etiladi.

Volidam, Makkam, Madinam

Mehribonim, jonim onam. (B.u.g‘.,39-b.)

Yoki:

Oq sutingga rozi bo‘l,

Azizam - Ka'bam onam. (B.u.g‘.,34-b.)

Ona nomini muqaddas qadamjolar nomi bilan teng qo‘yish orqali uning ham mo‘tabar zot ekanligi ta'kidlanadi. Onaning mo‘tabarligi esa o‘ta mehribonligi, fidoyiligi, g‘amxo‘rligi bilan belgilanadi. Ona vafotiga bag‘ishlangan ayrim yig‘ilar hatto kuyga solinib, qo‘shiq qilib kuylanadi.

Onalarga bag‘ishlangan motam yig‘ilarida, asosan, onaning beqiyos mehru-muhabbatli ekanligi, farzandlari uchun umrbod kuyib-pishganligi, mushfiqligi, shirin so‘zligi, bolalarini oq yuvib, oq tarab, oq sut berib boqqanligi tilga olinadi. Ayniqsa, uning ro‘zg‘or qiyinchiliklariga sabr-toqat bilan yelka tutib berganligi alohida madh etiladi:

Boriga ham yo‘g‘iga,

Achchig‘u ham totiga.

Dardiga ham dog‘iga,

Sabri ul tog‘im onam.(B.u.g‘.,35-b.)

Ona o‘limi-farzandlar uchun katta yo‘qotish. Shuning uchun farzandlar ona o‘limida:

Xayr ketdi sen bilan,

Ko‘rk ketdi sen bilan.

Bir o‘zing dunyomiding,

Dunyo ketdi sen bilan,(B.u.g‘.,36-b.) –deya nolish qiladilar.

Ayniqsa, onalar qizlarning yaqin sirdoshi, ko‘makchisi va maslahatdoshi bo‘lishadi. Lekin ko‘pincha qizlar ham, o‘g‘illar ham o‘z ro‘zg‘orlari bilan bo‘lib, onalarini unutib qo‘yishadi. Uning holidan kamdan-kam xabar



oladilar. O‘lim yuz berganda ana shu xaqiqat yuzaga chiqib, bundan farzandlar qattiq afsus-nadomat chekadilar. Ularning afsus-nadomati esa boshqalarga saboq bo‘lib yangraydi:

Qiz dedim, o‘g‘il dedim,

Ro‘z dedim, ro‘zg‘or dedim,

Hyech o‘zimdand ortmadim.

Dilginang tortgan taom-la,

Bir kuni yod etmadim.

Kiydirgani, xush etgani,

To‘rt enlik mato topmadim.( B.u.g‘.,35-b.)

Xullas, ona-buyuk zot bo‘lib, uning buyukligi farzandlariga g‘amxo‘rligida aks etadi. Farzandlar onasini «boshdagi tojga», «bog‘ning bog‘boniga», «ro‘zg‘orning sultoniga», «taxti ravonga», «mulki jahonga» tenglashtiradilar.

Yig‘ilar orasida og‘a-inilarga, opa-singillarga bag‘ishlangan namunalar ham mavjud. Ular «akaga», «ukaga», «opaga», «singilga» bag‘ishlangan yig‘ilar sifatida alohida-alohida turkumni hosil qiladi va o‘ziga xos poetik lug‘ati bilan o‘zaro farq qiladi.

Nega bevafolik qildingiz,

Yangamni gulday so‘ldirdingiz.

Bolalarni tashlab ketib,

Onamni tirik o‘ldirdingiz.

Akajonim, akam-ey,

Mehribonim, akam-ey.( B.u.g‘.,76-b.)

Yanga- akaning xotini. Qo‘shiqda shu so‘zning hamda «onam» so‘zining ishtiroki, uning aka haqida kuylanayotganini bildirib turadi. Aka haqidagi

yigʻilarda «akajon», «akajonim», «ogʻam» kabi leksik murojaatlar uchrab keladi. Akaning oiladagi oʻrni, er yigit sifatida xalq orasida qozongan shon-shuhrati tilga olinadi.

### **Nazorat savollari**

1. Mavsumiy va oilaviy marosimlarning xalq hayotidagi amaliy ahamiyati nima?
2. Navroʻz bayrami va xalq taqvining oʻzaro uygʻunligi siz yashayotgan hudud folklor namunalarida ham aks etganmi?
3. Xalq lirikasining marosim bilan bogʻliq boʻlmagan janrlarida yetakchi motiv sifatida nimani koʻrsatasiz?

### **4. Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Islom Karimov. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.
2. Islom Karimov. Adabiyotga eʼtibor – maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor. T., “Oʻzbekiston”. 2009.
3. Alaviya M. Lirik qoʻshiqlar // Oʻzbek folklori ocherklari.- Toshkent.: Fan, 1998, 1-tom, 244-254-betlar;
4. Musaqulov A. Oʻzbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. DDA. T., 1995;
5. Yoqubbekova M. Oʻzbek xalq qoʻshiqlarida oʻxshatish.-Toshkent.: Fan,
6. Sarimsoqov B. Oʻzbek marosim folklori. - Toshkent.: Fan, 1886;
7. Navroʻz. Navroʻz bayrami bilan bogʻliq qoʻshiqlar, afsona va rivoyatlar. Toʻplab, nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, M.Joʻrayev. – Toshkent.: Fan, 1992;
8. Navroʻz qoʻshiqlari (Tadqiqot majmua, Turdimov Sh, Eshonqulov J.),-T.: “Oʻzbekiston ” 2012.
9. Musaqulov A. Oʻzbek xalq lirikasi. T.: Fan, 2010. 307 b.

10. Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. Дисс., канд.филол., наук. Т.: 1987. – 184 с.
11. Eshonqulov J. O‘zbek xalq qo‘shiqlari badiiyati masalalari. Toshkent San'at va madaniyat institutida 2015 yil 16 aprel kuni «Xalq ijodi milliy ma'naviyatimiz asosi» mavzuida bo‘lib o‘tgan bo‘lib o‘tgan ilmiy anjuman materiallari. –Toshkent, 2015. – B.44–48.

## GLOSSARIY

**An’ana** – folklorda o‘tmish ijodkorlar tamonidan to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi.

**Etnografiya** – etno... va ... grafiya, etnologiya, xalqshunoslik — jahondagi barcha xalqlarning, etnik birlikshst turli tiilari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlarini, moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasidan qat'i nazar, teng holda o‘zaro tafovuti yoki umumiyliigi va o‘xshashligini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi maxsus fan sohasi.

## TEST SAVOLLARI

1. **Bug‘doy aytar olaman,  
To‘ylarga ko‘p yarashaman.  
O‘qlovlarga yovoshaman,  
To‘lmadingmi, qora daryo?**

Ushbu to‘rtlik qaysi qo‘shiq turiga mansub?

- A. O‘rim qo‘shiqlari
- B. Yanchiq qo‘shiqlari
- C. Sog‘im qo‘shiqlari
- D. Charx qo‘shiqlari

- 2. Bosma tikkan botir qiz,  
Jimalay tikkan chevar qiz.  
Sanama tikkan sardor qiz,  
Ilma tikkan ilgir qiz.**

Ushbu qo‘shiq mazmunan qanday nomlanadi?

- A. Yanchiq qo‘shig‘i
- B. Charx qo‘shig‘i
- C. Bo‘zchi qo‘shig‘i
- D. Kashta qo‘shig‘i

**3. Hunarmandchilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlarining nomlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?**

- A. «Charx qo‘shiqlar», «bo‘zchi qo‘shiqlar», «kashta ko‘shiqlari»
- B. «Qush qo‘hiqlari», «o‘rim qo‘shiqlari», «yorg‘ichoq qo‘shiqlar»
- C. «Muhabbat qo‘shiqlari», «satirik qo‘shiqlar», termalar
- D. «Tarixiy qo‘shiqlar», «hajviy qo‘shiqlar»

- 4. Suv kechgani eringan,  
O‘g‘il tug‘ib kerilgan.  
Qaynonasiga salom.**

Ushbu parcha mazmuniga ko‘ra qanday nomlanadi?

- A. Marsiya
- B. Alla
- C. Kelin salom
- D. Lapar

- 5. O‘rog‘im chaqqon,  
Sen menga yoqqan.  
Qo‘lginam chaqqon,  
Mehnatda boqqan.**

Ushbu parcha mavzu mehnatiga ko'ra qanday qo'shiq turiga mansub?

- A. tarixiy qo'shiq
- B. lirik qo'shiq
- C. o'rim qo'shig'i
- D. chorvachilik qo'shig'i

6. Quyidagi parcha mazmunan qaysi qo'shiq turiga mansub?

**Yor tashlab ketding meni,**

**Hardamda yod etding meni.**

**Bo'ylaring bir ko'rsatib,**

**Ko'rmakka zor etding meni**

- A. lirik qo'shiq
- B. tarixiy qo'shiq
- C. dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiq
- D. chorvachilik bilan bog'liq qo'shiq

7. Javoblarning qaysi birida churiyalarning qisqacha ta'rifi to'g'ri berilgan?

- A. Gilam, sholcha to'qishda ijro etiladigan qo'shiq
- B. Ona qo'ylarni sog'ish va emizishda ijro etiladigan qo'shiq
- C. Echkilarni sog'ish yoki uloqlarni emizish paytida aytiladigan qo'shiq
- D. Gilam, sholcha to'qishda ijro etiladigan qo'shiq

8. O'zbek marosim folklorining tasnifi javoblarning qaysi birida to'g'ri berilgan?

- A. mavsumiy marosimlar
- B. oilaviy-maishiy, mavsumiy marosimlar
- C. oilaviy-maishiy, mavsumiy va so'z magiyasiga asoslangan marosimlar

D. oilaviy-maishiy marosimlar

9. Yomg'ir chaqirishga qaratilgan marosim qo'shig'i qaysi javobda berilgan?

- A. «Sust xotin»
- B. «Xo'p xayda»
- C. «Oblo baraka»
- D. «Yo, Haydar»

10. Javoblarning qaysi birida shamol to'xtatishga qaratilgan marosim qo'shig'ining nomi berilgan?

- A. «Xo'p xayda»
- B. «Oblo baraka»
- C. «Choy momo»
- D. «Sust xotin»

### **3-mavzu: Qo'shiq: Mehnat qo'shiqlari va termalar**

#### ***Reja:***

1. Lirik tur haqida ma'lumot.
2. Mehnat qo'shiqlari, ularning turlari
3. Termalar va ularning o'ziga xos xususiyati

**Tayanch so'z va iboralar:** lirik tur, terma, ritorik murojaat, sillabik she'r tizimi, metrik she'r tizimi, tonik she'r tizimi.

**1. Lirik tur haqida ma'lumot.** Lirik – lira deb atalgan qadimgi yunon musiqa asbobining nomidan olingan bo'lib, badiiy adabiyotda inson his-tuyg'usini, ichki kechinmalarini ifodalovchi asarlar nazarda tutiladi.

Ma'lumki, hayotda turli voqea-hodisalar ro'y beradi. Lirik asarlarda ana shu turmush lahzalari ta'sirida shaxs qalbida paydo bo'lgan kechinmalar ifodalanadi. Ana shu xususiyati bilan lirika eposdan farqlanadi.

Xalq og'zaki ijodidagi har bir lirik qo'shiq qachonlardir dil so'zlarini aytish bilan ruhiy olamidagi o'zgarishlarni bildirmoqchi bo'lgan yigit-qizlarning qalb daftaridagi muhrlangan misralardan iborat. Hatto bolalar folkloriga mansub allalarni olasizmi, "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga" qo'shiqlarini olasizmi, lirik asarlar talabiga javob berishi shart deb hisoblash kerak.

O'zbek folklorshunosligida lirik tur janrlari ko'pchilikni tashkil etadi va ularning ibtidosi marosim lirikasiga bevosita va bilvosita bog'lanadi.

**2. Mehnat qo'shiqlari, ularning turlari.** O'zbek xalqi tarixini shartli ravishda mehnat qilish tarixidan iborat deyish mumkin. O'zbeklar to'y marosimlarini, gap-gashtaklarni, sayillarni, turli bayramlarni o'tkazishda o'ta tashkilotchi va ijodkor xalq sifatida shuhrat topgan. Dam olish, hordiq chiqarishni o'rniga qo'ygan xalq, odatda, mehnat qilishni ham biladi.

Mehnat qo'shiqlari o'z tarkibida bir necha janrlardan iborat bo'ladi. Har bir janrni bevosita mehnatning qaysi turi bilan band bo'lish belgilaydi. Xususan, o'rmak qo'shig'i gilam to'qishda aytilar ekan, aynan shu namuna kashta tikuvchi, qo'sh haydovchi shaxs tomonidan ijro etilmaydi. Ya'ni har bir mehnat sohasi o'zining maxsus qo'shig'iga egaligi bilan ajraladi. Shuningdek, ko'p qo'shiqlarda ish quollariga murojaat qilish odati bor. Bug'doy yanchayotgan dehqon ho'kizi bilan tillashadi, un chiqarayotgan ayol yorg'ichoqqa murojaat qilishi mumkin. Binobarin, mehnat qo'shiqlarining ichki turlarini matnda esga olingan ish quroli vositasida ham aniqlash imkoni bor. Yana bir xususiyatni eslab o'tish joiz. Mehnat qo'shiqlari uzoq muddat davomidagi ishni bajarishda o'ziga xos vosita bo'lgani sababli ular qayta-qayta bir matnni takrorlash, ish qilayotgan odamning sergakligini oshirish maqsadida turli xitoblarga murojaat qilish

ham an'ana hisoblanadi.

Folklorshunos Bahodir Sarimsoqov mehnat qo'shiqlarini o'rganish tahlil qilishning qulayroq yo'lini belgilash maqsadida ularni quyidagi turlarga bo'lishni ma'qul topgan:

1. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
2. Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
3. Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar<sup>4</sup>.

Keltirib o'tilgan tasnif mehnat turlariga ko'ra amalga oshirilgan. O'z navbatida ularning har biri ma'lum ichki bo'linmalardan tashkil topdi.

Xalqning dehqonchilik bilan qo'shiqlarining yorqin misoli sifatida Qo'sh qo'shig'ni keltirish mumkin, Qo'sh qo'shiqlarida dehqonning mashaqqatli mehnati va bu mehnatni oz bo'lsada oson qilgan hukizidan minnatdorligi, ana shu ho'kizini olqishlab, maqtash davomida o'z ishidan mamnuniyat sezish ham ifoda etilgan:

Enib kelding ekishdan,  
To'rt oyog'ing kumishdan.

Yoki

Tarlon tayog'im hayda,  
Temir tuyog'im hayda.  
Ishni tamom qilmasang,  
Jonimga arom qayda.

Qo'sh ishlarini yakunlab yerga baraka urug'lari qadalgach, bu orada bahor ham ancha amalga kirib, gulu –lolalar ochilib Navro'z bayrami, Lola sayli, gul bayramilariga ulanib ketadi. Lola sayli va qizil gul bayramlarida aytiluvchi qo'shiqlarni ham, ko'klam paytidagi sog'in qo'shiqlarini ham keng ma'noda Navro'z qo'shiqlari turkumiga kiritish mumkin. Chunki bu qo'shiqlarning barchasi bahor qo'shiqlari hisoblanadi. X'uddi shu kabi chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar va hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlarni ham ko'rib chiqish mumkin.

---

<sup>4</sup> Саримсоқов Б. Қўшиқлар / Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 144.



**3. Termalar va ularning o'ziga xos xususiyati.** Xalq og'zaki ijodida qo'shiq va doston o'rtasida vujudga kelgan bir janr bor. Unda qo'shiqdagi lirik ifoda, ayni paytda epik bayon qilish xususiyati uyg'un namoyon bo'ladi. Bunday asarlarga xalq *terma* deb nom bergan. So'zning lug'aviy ma'nosi ko'pdan terib olingan, ajratib saralangan tushunchalarini beradi. O'zbek folklorining yirik tadqiqotchisi filologiya fanlari doktori, professor To'ra Mirzayev termalar janriga shunday ta'rif beradi: «Pand-nasihat, odob-axloq, soz va so'z haqida yaratilgan, ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta'rifi va tanqidiga bag'ishlangan, baxshilar tomonidan kuylanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba'zan undan ham ortiq misralargacha bo'lgan lirik, liro-epik she'rlarga terma deyiladi»<sup>5</sup>. Ta'rifda diqqatni jalb qiluvchi bir nechta fikriy nuqtalar bor. Avvalo, termalar mavzu jihatdan, ko'pincha, pedagogik ahamiyatni nazarda tutgan hayotiy lavhalar bayonidan iborat bo'ladi. Ikkinchidan, ularda yozma mumtoz adabiyotdagi qasida vazifasi bajariladi. Ya'ni ayrim shaxslar, do'mbira, ot yoki yana nimalargadir she'r maqtovlar bag'ishlanadi. Uchinchidan, termalar lirik parchalardan tashkil topishi mumkin. Demak, bunday termalarda ijrochining bosh maqsadi his, tuyg'u, ichki kechinmalar ifodasiga qaratiladi. To'rtinchidan, liro-epik she'rlardan iborat bo'lganda, voqyealar bayoni his-tuyg'u vositasida aks etadi. Va, nihoyat, hajmi 10-12 va 150-200 misra atrofida, ya'ni ijrochi baxshining xohishi bilan belgilanadi.

Filologiya fanlari doktori, professor Abiyr Musaqulov esa xalq termalarining estetik ahamiyatiga diqqat qilib shunday deydi: «Termalar o'zbek folklori estetikasini o'rganish uchun g'oyat muhim manbadir. Go'zallik va xunuklik, baxt va baxtsizlik haqidagi termalar fikrimizga dalil bo'la oladi»<sup>6</sup>. Mazkur mulohaza muallifi termalarning xalq ommasi orasidagi haqiqiy insoniy fazilatlarni targ'ib qilish quroli ekanini alohida ta'kidlamoqda. So'z san'atining bosh vazifasi ham aynan insonga go'zallik

---

<sup>5</sup> Мирзаев Т. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 169.

<sup>6</sup> Мусақулов А. Ўзбек фольклори очерклари. I том. - Т.: Фан, 1988. – Б. 269.

va xunuklik vositasida uning qalbiga yo‘l topish orqali ruhiy ta'sir o‘tkazishdir. Termalarning janr xususiyatlari ana shu tushunchalar orqali namoyon bo‘ladi.

Professor Hodi Zarifov bergan ma'lumotlarga qaraganda, Jumanbulbul o‘g‘li Ergashni maktabdor O‘tamurodning qizi Ziynatoyga uylantirganlar. Ammo baxshi yashaydigan hudud an'anasiga ko‘ra kelin to‘ydan keyinoq kuyovnikiga kelmas ekan. Uning kuyovnikiga kelishi uchun yana bir to‘y o‘tkazish odati bor ekan. Afsuski, birinchi to‘ydan keyin Jumanbulbul vafot etadi. Ergashning esa keyingi to‘yga mablag‘i bo‘lmaydi. Otasidan qolgan arzimas bor-yo‘q narsalarni qarz evaziga olib ketishadi:

*Bo‘lib-bo‘lib olib ketdi haqini,  
Biz bilmaymiz haqi bor yo yo‘g‘ini,  
Zoti yo olismi, bizga yaqini,  
Bariga haq berib turgan kunlarim.*

Ergash hayotida juda murakkab tanqis holat ro‘y beradi:

*Xotin qoldi otasining uyida,  
Men bilmayman ne gaplar bor o‘yida,  
Ko‘p va‘dalar bo‘lgan edi to‘yida  
Uyalib, borolmay yurgan kunlarim.*

Shunday qilib, vaqtida jonkuyar insonlar harakati bilan yozib olingan termalar yordamida baxshi hayotidagi o‘ta sirli va betakror hodisalar haqida ma'lumot olamiz.

Mashhur baxshilar yurtda sodir bo‘layotgan adolatsizliklarga beparvo qarab turolmaganlar. Ayrim termalar matnida O‘zbekiston hududidagi tarixiy voqealar ham aks etgan. Xususan, Hodi Zarifov qayd qilishicha, 1898-1908-yillarda O‘rta Osiyoni chigirtka bosgan ekan. O‘tgan asrda

qariyalarning xotirasiga qaraganda, ayrim hududlardagi chigirtkani kuraklarda qopga solib ulgurishmagan ekan. Ana endi ofatni ekin maydonlarida tasavvur qiling. 1908-yilda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li «Chigirtka» nomi bilan terma yaratadi:

*Bozorchidan shayton qaytib,  
Biriga uch baho aytib,  
O‘ttiz olib, to‘qson sotib,  
Davlatmandlar qabon bo‘ldi.*

*Kambag‘alning aqli shoshib,  
O‘g‘il-qizman kengashib,  
Kecha-kunduz zor yig‘lashib,  
Do‘stlar qaddi kamon bo‘ldi.*

Bu qo‘shiq-termada yurtimiz boshidan kechgan musibatli kunlar badiiy aksini topgan.

Baxshilar tomonidan kuylab kelingan «Do‘mbiram», «Kunlarim», «Nima aytay?», «Go‘ro‘g‘li», «Bormi jahonda?..» kabi termalarning hammasida ham ma‘lum darajada real tarixiy voqyealar, xalqning kechinmalari ifodalangan. Ularni yaratishda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Islom shoir, Umir Safarov, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullaev), Rahmatilla Yusuf o‘g‘li, Qodir baxshi, Qahhor baxshi ijodi muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, termalarni xalqimiz og‘zaki ijodidagi mustaqil janr sifatida baholash mumkin. Ular xalq hayotining badiiy ifodasi sanaladi. Termalarning xalq dostonlari va haqqoniy hayot o‘rtasidagi aloqa bog‘lovchi vositachilik ahamiyati g‘oyatda muhimdir.

### **Nazorat savollari**

1. Mehnat qo‘shiqlari, termalarning nashrlari va o‘rganilishi holati haqida gapiring?
2. Lirik qo‘shiqlarning tadqiq etilishi va chop qilish tajribalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Xalq lirikasi genezisi va tadrijiy bosqichlari yuzasidan qanday tajribalarni bilasiz?

#### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Islom Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. T., “O‘zbekiston”. 2009.
3. Alaviya M. Lirik qo‘shiqlar // O‘zbek folklori ocherklari.-Toshkent.: Fan, 1998, 1-tom, 244-254-betlar;
4. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. DDA. T., 1995;
5. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatish.-Toshkent.: Fan,
6. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. - Toshkent.: Fan, 1886;
7. Navro‘z. Navro‘z bayrami bilan bog‘liq qo‘shiqlar, afsona va rivoyatlar. To‘plab, nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, M.Jo‘rayev. – Toshkent.: Fan, 1992;
8. Navro‘z qo‘shiqlari (Tadqiqot majmua, Turdimov Sh, Eshonqulov J.),-T.: “O‘zbekiston ” 2012.
9. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. T.: Fan, 2010. 307 b.
10. Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. Дисс., канд.филол., наук. Т.: 1987. – 184 с.
11. Eshonqulov J. O‘zbek xalq qo‘shiqlari badiiyati masalalari. Toshkent San'at va madaniyat institutida 2015 yil 16 aprel kuni «Xalq ijodi milliy ma'naviyatimiz asosi» mavzuida bo‘lib o‘tgan bo‘lib o‘tgan ilmiy anjuman

## GLOSSARIY

**Janr** (fr. genre – jins, tur, xil) – adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarni tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha. J. termining qo‘llanishida turlichalik kuzatiladi: ayrim manbalarda J. termini adabiy tur (epos, lirika, drama) ma'nosida ishlatilsa, boshqa birlarida ancha tor ma'noda (epos – tur, roman – xil, tarixiy roman – janr) qo‘llanadi.

**Lirika** (yun. lyra – musiqa asbobi, qadimda she'rlar uning jo‘rligida o‘qilgan) – badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. L.da voqelik lirik sub'ekt his-tuyg‘ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq ob'ekti emas, sub'ekti birlamchidir.

**Ritorik murojaat** - tantanavorlik, ko‘tarinkilik yoki kesatish, kuchli g‘azab, nafratni ifodalash uchun qo‘llanadigan xitob shaklidagi ifoda usulidir.

**Sillabik she'r tizimi** - bo‘g‘inlar miqdoriga asoslanadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalq she'riyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari she'riyati ham sillabik she'r tizimiga mansubdir.

**Metrik she'r tizimi** - esa bo‘g‘inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab she'riyati shunday xususiyatga ega.

**Sillabo-tonik she'r tizimi** - bo‘lsa, urg‘uli, urg‘usiz bo‘g‘inlarning ma'lum tartibda kelishiga asoslanadi. Rus she'riyati shundaydir.

**Tonik she'r tizimi** - misralarda urg‘usiz bo‘g‘in qancha bo‘lishidan qat'i nazar, ritm hosil bo‘lishi, urg‘ularning bir maromda kelishiga asoslanadi.

## TEST TOPSHIRIQLARI

1. Qo‘shiq janrining ta'rifini aniqlang.

- A. So'z o'yini ko'chma ma'noli so'z va janrlarni ilg'ab olish va unga javob topa bilish, sha'ma qilish san'ati
- B. Hayot haqiqati bilan bog'liq, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi janr
- C. Turkiy «qo'shmoq» fe'lining o'zagidan yasalgan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nosini anglatuvchi og'zaki lirik turga mansub mustaqil janr
- D. Syujet diologi asosida qurilgan haja va yengil yumorga moyil mubolag'ali tasvirlanishi bilan ajralib turuvchi janr

**2. Bug'doy aytar olaman,  
To'ylarga ko'p yarashaman.  
O'qlovlarga yovoshaman,  
To'lmadingmi, qora daryo?**

Ushbu to'rtlik qaysi qo'shiq turiga mansub?

- A. O'rim qo'shiqlari
- B. Yanchiq qo'shiqlari
- C. Sog'im qo'shiqlari
- D. Charx qo'shiqlari

**3. Bosma tikkan botir qiz,  
Jimalay tikkan chevar qiz.  
Sanama tikkan sardor qiz,  
Ilma tikkan ilgir qiz.**

Ushbu qo'shiq mazmunan qanday nomlanadi?

- A. Yanchiq qo'shig'i
- B. Charx qo'shig'i
- C. Bo'zchi qo'shig'i
- D. Kashta qo'shig'i

4. Hunarmandchilik bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlarining nomlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- A. «Charx qo‘shiqlar», «bo‘zchi qo‘shiqlar», «kashta ko‘shiqlari»
- B. «Qush qo‘hiqlari», «o‘rim qo‘shiqlari», «yorg‘ichoq qo‘shiqlar»
- C. «Muhabbat qo‘shiqlari», «satirik qo‘shiqlar», termalar
- D. «Tarixiy qo‘shiqlar», «hajviy qo‘shiqlar»

5. **O‘rog‘im chaqqon,**

**Sen menga yoqqan.**

**Qo‘lginam chaqqon,**

**Mehnatda boqqan.**

Ushbu parcha mavzu mehnatiga ko‘ra qanday qo‘shiq turiga mansub?

- A. tarixiy qo‘shiq
- B. lirik qo‘shiq
- C. o‘rim qo‘shig‘i
- D. chorvachilik qo‘shig‘i

6. Quyidagi parcha mazmunan qaysi qo‘shiq turiga mansub?

**Yor tashlab ketding meni,**

**Hardamda yod etding meni.**

**Bo‘ylaring bir ko‘rsatib,**

**Ko‘rmakka zor etding meni**

- A. lirik qo‘shiq
- B. tarixiy qo‘shiq
- C. dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiq
- D. chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiq

7. Javoblarning qaysi birida churiyalarning qisqacha ta‘rifi to‘g‘ri berilgan?

- A. Gilam, sholcha to‘qishda ijro etiladigan qo‘shiq

- B. Ona qo‘ylarni sog‘ish va emishda ijro etiladigan qo‘shiq
- C. Echkilarni sog‘ish yoki uloqlarni emizish paytida aytiladigan qo‘shiq
- D. Gilam, sholcha to‘qishda ijro etiladigan qo‘shiq

8. Yomg‘ir chaqirishga qaratilgan marosim qo‘shig‘i qaysi javobda berilgan?

- A. «Sust xotin»
- B. «Xo‘p xayda»
- C. «Oblo baraka»
- D. «Yo, Haydar»

9. Javoblarning qaysi birida shamol to‘xtatishga qaratilgan marosim qo‘shig‘ining nomi berilgan?

- A. «Xo‘p xayda»
- B. «Oblo baraka»
- C. «Choy momo»

#### **4-mavzu: Bolalar folklori va ularning talqinlari, badiiy xususiyatlari**

##### ***Reja:***

1. Bolalar folklorining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Bolalar qo‘shiqlari.
3. Alla qo‘shiqlari badiiyati.

**Tayanch so‘z va iboralar:** bolalar folklori, ritm, satirik, yumoristik, so‘z o‘yinlari, qiqillamalar, tez aytish, og‘zaki nasr.



O‘zbek bolalari o‘zlarining xilma-xil o‘yinlari va rang-barang janrdagi qo‘shiq repertualarini yaratganlarki, ularda bolalikning qalb tebranishlari, qiziqish va ehtirolari, voqyelikka munosabatidagi o‘ziga xosliklari, psixologiyasi balqib turadi. Bolalar shular bilangina cheklanmaganlar; ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan kattalar repertuariga daxldor ayrim folklor hodisalarini o‘zlashtirib – “o‘zlariniki” qilib borganlar. Bugungi kunda topishmoqlar, tez aytishlar va qo‘g‘irchoq teatrining tom ma'noda bolalarniki bo‘lib qolgani hych kimda shubha uyg‘otmaydi. Ana shu taxlitda o‘yinlar, qo‘shiqlar, og‘zaki nasr, muqallid yoki og‘zaki teatr tarzida tarmoqlangan va o‘zaro chambarchas bog‘lanib, bir butunlik holatiga kirgan o‘zbek bolalar folklori shakllanib ulgurgan.

**1. Qo‘shiqlar.** Bolalar ijodkorligi va ijrochiligida salmoqli mavqyega ega bo‘lgan qo‘shiqlar tabiatiga ko‘ra *lirik* va *hajviy* mohiyatga molikligi bilan ajralib turadi:

a) onalar allalaridan ritmik uquvi shakllana boshlagan kichkintoylarda 2-5 yasharliklaridayoq o‘z xatti-harakatlari va o‘yinlarini ritmik jihatdan baholash va boshqarish mayli tug‘iladi. Bu shunchaki baholash va boshqarishgina bo‘lmay, ularning o‘sha xatti-harakatlari, o‘yinlaridagi hayotiy mazmuni ritmgga solishdan iborat poetik ko‘tarinkilik hisoblanadi. Shu sababli ular shovqin solib aytiladi va aksar holatlarda ikki satrdan oshmaydi. Tovushlar shovqinining ritmik garmoniyasi hosilasi sifatida to‘qilgan bunday *qiqillamalar* bolalar ijrochiligida ilk poetik akt hisoblanishi bilan qimmatlidir.

Turli yoshdagi bolalarning voqyelikka poetik munosabatlari chuqurlashgani sayin ular ijod va ijro etgan qo‘shiqlar ham shakl, ham mazmun jihatidan teranlashib, takomillashib boradi. Shu zaylda uchlik, to‘rtlik, beshlik, oltilik va sakkizlik shaklidagi qo‘shiqlar yuzaga kelgan. Ayniqsa, to‘rtlik shakli bolalar repertuarida keng tarqalgan. Shuningdek, kompozitsion jihatdan dialog negizida qurilgan qo‘shiqlar ham anchagina.

Odatda, ular *aytishuvlar* (aytishmalar) ham deyiladi. Hajman anchayin katta voqyeaband qo‘shiqlar ham bor. Xullas, **lirik** qo‘shiqlar qanday hajm va shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar bolalar yoshi va saviyasi darajasida ijtimoiy voqyelikka poetik munosabat ifodasi sifatida yaratilganligi bilan xarakterlanadi.

b) bolalar ham hazil-mutoyibaga alohida rag‘bat bilan qarashadi. Bir-birlarida tabiiy yoki ma’naviy qusur hamda kamchiliklarni payqashgan zahotiyoq tap tortmasdan, ayashmay, avvaliga nomga qofiyadosh laqab topib, keyinroq – jarayon chuqurlashgani sari shu laqabning ohangdoshligiga omuxta ritmga uyg‘unlashgan hazilni chuqurlashtirib mazax qilishadi, tegishadi, hatto ota-onalaridagi nojo‘ya xatti-harakatlarni ham boplab yuzlariga solishadi.

Bolalar, aql-idroklari to‘lisha va teranlasha borgani sayin, ijtimoiy voqyelikka ham faolroq munosabatda bo‘lishga harakat qiladilar. Shu jarayonda payqagan ijtimoiy illatlarni masxaralash darajasida o‘zlarida jur'at seza boshlaydilar. Ana shunday taassurot zamirida ularning folklor bisotida *hajviy yoki satirik va yumoristik* qo‘shiqlar silsilasi yuzaga kelgan.

**2. O‘yinlar.** Bular bolalar faoliyatida alohida rol o‘ynaydi va *bolalar o‘yin folklori* sifatida maxsus guruhni tashkil etadi. Qolaversa, o‘yinlarning o‘zi ham harakat maqsadiga ko‘ra ikki katta guruhga bo‘linadi:

a) *harakatli o‘yinlar*. Ma'lumki, bolalarning bunday o‘yinlari asosini harakat tashkil etadi. Ammo harakat esa o‘z-o‘zidan voqyelikka aylanmaydi, uning yuzaga kelishida taqlid, narsa (predmet) va poetik so‘z vosita vazifasini o‘taydi. Shu xususiyatiga ko‘ra harakatli o‘yinlarning uch ichki tipini ajratish mumkin:

– taqlid negizida qurilgan harakatli o‘yinlar;

– narsa yoki o‘yinchoqlar harakatni boshqaradigan o‘yinlar;

– poetik so‘z harakatni boshqaradigan o‘yinlar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bolalar ijrochiligida o‘yinlar qo‘shiqlar bilan ziynatlangani tufayli favqulodda estetik mohiyat kasb etgan. Zero, qo‘shiq harakatdan iborat o‘yinlarning ajralmas uzviy qismi sifatida ularning mazmundorligini to‘ldirishga xizmat qilgan, aniqrog‘i, qo‘shiq bolalarni o‘yinga chorlaydi, yo ular o‘yiniga muqaddima bo‘ladi, yo o‘yin uchun shart vazifasini o‘taydi. Bunday vaziyatda u o‘yinning debochasini tashkil qiladi, yo o‘yindagi harakatning yo‘nalishini belgilab, dramatik holatni yuzaga keltiradi, yo o‘yinga yakun yasab, ishtirokchilarni tarqalishga da’vat etadi. Bunday qo‘shiqlar o‘yinning tarkibiy uzvi sanaladi. Chunki ularda butun o‘yin jarayoni zuhur topmaydi. Chorlamalar, cheklashmashoqlar, sanamalar, shuningdek, o‘yindagi harakatni boshqaruvchi badihalar va tarqalmashoqlar shunday xarakterga ega.

b) *ma’naviy yoki so‘z o‘yinlari*. Bolalar so‘z bilan o‘ynab, ma’naviy kamolot pillapoyalaridan ildamlaydi. Bola o‘z kamolotining ilk bosqichida so‘z ma’nosini anglashdan yiroq turadi. Biroq so‘zning sehrli olamiga u bilan o‘ynab turib kira boradi. Onalar allalarining nazokatli ohangi bilan tanglayi ko‘tarilgan bolakay endi tovushlarning mo‘jizakor ohanglaridan huzurlana boshlaydi. Eng muhimi, shunday huzurlanish zavqini o‘zi uchun o‘zi kashf etishga intilib, asta-sekin so‘zlar hosilasidan tug‘ilgan ritmlarning harakatga yoki fikrga uyg‘un tarovatidan ma’no uqishga mayli kuchaya boradi. Kattalar bolalardagi bu ma’naviy ehtiyojni qondirishni ko‘zlab, qachonlardir topishmoq tez aytish singari so‘z o‘yinlarini o‘ylab topganlar. Bolalarga bular g‘oyat maqbul tushdi va ularni chinakamiga o‘zlashtirib, hatto “o‘zlariniki” qilib oldilar. Ayni choqda o‘zlari ham guldur-guplarni, bir-birlarini so‘zda chandishni chinakam ma’naviy o‘yin darajasiga ko‘tardilar, shuningdek, so‘zlarni sindirib ma’no uqish

mashqlaridan iborat sirli yashirin tilning xilma-xil ko‘rinishlarini o‘ylab topdilar.

---

Allalar beshik qo‘shiqlarining keng tarqalgan an’anaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq, millat yoki elat yo‘qki, ularning o‘z allasi bo‘lmasa...Ruslarda “bayki” yoxud “bayushki”<sup>7</sup> deb yuritiluvchi bunday qo‘shiqlar turkmanlarda “huvdilar”<sup>8</sup>, tatarlarda “alli-balli”<sup>9</sup>, qoraqalpoqlarda “hyeyya-hyeyya”<sup>10</sup>, turklarda “nini-nini”<sup>11</sup>, forslarda “lo-lo”, inglizlarda “cradlesong lullaby”, nemislarda “wiegeliieg”, fransuzlarda “berceuse”<sup>12</sup>, o‘zbek va tojiklarda “alla” va “allo” atamalari bilan mashhurdir. Binobarin, alla jahon onalarining mehrga yo‘g‘rilgan bir qadar farahbaxsh, ammo o‘rni bilan esa bir qadar ma’yus, muqaddas qo‘shig‘idir.

“ Allalar, odatda, bolalarning emizikli davridan to uch yoshni to‘ldirguniga qadar aytiladi. Ularning ana shu yosh bilan bog‘lanishi qat’iy bo‘lib, bu xususiyat faqat beshik qo‘shiqlarigagina xosdir. Shu sababli allalarni ona suti bilan bog‘lashlari bejiz emas. Ha, allada ona sutining tiniqligi, pokizaligi bor. Uning mo‘tabarligi shundan. Bunga chaqaloqning ma’sumligi, pokligi, begunohligi, bezavolligi, musaffoligi va norastaligi qo‘shilib, allalar yana bir qadar muqaddaslashtirilgan. Natijada allalar bora-bora “haq qo‘shig‘i” sifatida ilohiylashtirilgan:

**1)Ayollar allalari.** Bular asosiy ko‘pchilikni tashkil etadi va janr tabiatini tahlil qilishga oid barcha namunalar shu tipga mansub.

**2)Erkaklar allalari.** Bular huyalar deb yuritiladi. Bu haqda dastlab G‘ozi Olim Yunusov 1926 yilda «Maorif va o‘qitg‘uvchi» jurnalining 4-sonida bosilgan «Allalar haqida so‘z» maqolasida eslatgan edi. Hodi Zarif

---

<sup>7</sup> Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. Т.1.М., 1955, с.57.

<sup>8</sup> Хапыз ага. Ашгабат, 1975, 21-бет.

<sup>9</sup> Татар халкының балалар фольклоры, 41-бет.

<sup>10</sup> Қарапалпақ халқ қосықлары. Нокыс, 1965, 21-бет.

<sup>11</sup> Госик. Edebiyet Antologiyasi. Anqara, 1957, 3-бет.

<sup>12</sup> Капица. О.И. Детский фольклор. С. 34.

esa, G'.O.Yunusovning o'sha davrlardayoq huyalarning bir necha yaxshi namunalarini yozib olganligi haqida guvohlik bersa-da, bu matnlar taqdiri hanuzgacha noma'lumligicha qolib kelayotir. Oqibatda bugunga qadar huyalarning allalardan farqli xususiyatlarini muayyanlashtirish e'tibordan chetda qolayotir. Buning yana boshqa bir sababi shundaki, allalar Xorazmda «hyey», qoraqalpoqlarda «hyeyya-hyeyya» va turkmanlarda «huvdi» tarzida atalganidan istilohlar o'xshashligi yuzaga kelganligi tufayli folklorshunoslikda o'zbeklardagi allalarga iqrorlik va huyalarga ishtiboh bilan qarash oyinga aylangan.

Holbuki, allalar ham, huyalar ham o'zbeklar orasida qadimdan kuylanib keladi. Endilikda motam allalari silsilasida ayollar ijrochiligida kuylanadigan huyalar borligi aniqlandi. Rost, huyalarni, asosan, otalar va bobolar kuylaydilar. Ular chorvachilik bilan shug'ullanuvchi o'zbeklar orasida keng tarqalgan. Buni ularning mazmuni ham tasdiqlaydi:

Huya, bolam, huyang qani?

Buvang bergan tuyang qani,

Buvang bergan tuyang bo'lsa,

Boqib yurganlaring qani?

Boqib yurgan tuyang bo'lsa,

Adiring-cho'llaring qani?

Huya, bolam, huya!

Chindan-da, ayollar uy-ro'zg'or yumushlari bilan band bo'lgan paytda chaqaloqni ovutish, uxlatish erkaklar zimmasiga tushgan. Shunday kezlarda ular bolani tizzalariga olib, tebratish marosimiga mos ohangda huya kuylab, bolaga uyqu chorlaganlar<sup>13</sup>.

Allalar poetik pafosiga ko'ra lirik va yumoristik ruhda bo'ladi. Lirik allalar

---

<sup>13</sup> Бу хусусда батафсилроқ қаранг: Сафаров О. Хуялар-оталар алласи // «Мактабгача тарбия» журнали, 1994,5-6-сонлар, 20-бет. Мақолада Хуялар намуналари ҳам илова қилинган.

asosiy ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular mavzu-motiv mohiyatiga ko‘ra avaylovchi, maishiy va tarixiy yo‘nalishga ega. Ularning marosimga aloqador namunalari ham mavjud. Asosan, motam allalari deb yuritiluvchi bu turkumning *o‘lim allalari*- marhum tilidan aytiladigan allalar, *chaqaloq o‘lganda sadr tushib aytiladigan allalar* singari yig‘i tiplari va yo‘qlov allalaridan iborat ichki xillari aniqlangan<sup>14</sup>.

*Avaylovchi allalar* ancha keng tarqalgan bo‘lib, asosan, bolalarni erkalash, ularni o‘rab olgan muhit bilan tanishtirish, faqat o‘zlarigagina bog‘liq bo‘lgan narsalarni poetik ta’riflay turib, bola taqdirini orzular silsilasida ko‘rish motivlariga limmo-lim. Bu jihatdan, ayniqsa, bola beshigining poetik ta’rifiga alohida e’tibor berilganini qayd etish lozim. Axir beshik-go‘dakning uyi-da, u shu beshikdagina orom olishi, shunday paytlarda esa, ona o‘z yumushlarini amalga oshirishi mumkin.

O‘zbeklar qadim zamonlardan beri beshikning qanaqa materialdan yasalishiga, pardoziq alohida e’tibor berganlar; o‘tmishda uni, asosan, tut, o‘rik va yong‘oq kabi mevali daraxtlardan yasaganlar. Beshikning mevali daraxt tanasidan yasalishiga insonning sermeva-ko‘p farzandli bo‘lishiga oid istakni ramzan nazarda tutganlar.

Allaning oti haqdir,

Haqdan dilaklar<sup>□15</sup> ko‘pdir,

yetirsa<sup>□16□17</sup>

dilagimni, alla,

O‘lsam armonim yo‘qdir.

---

<sup>14</sup> Сафаров О., Ўраева Д, Нарзуллаева Д. Мотам аллалари ҳақида мулоҳазалар. // ЎТА, 5-сон, 30-34-бетлар. Яна: Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. Тошкент: «Фан», 2004, 36-44-бетлар. Яна: Бўзлардан учган ғазал-ай. Бухоро, 2004, 98-110-бетлар.

\* Тилаклар

\*\* Етқирса

Qorako‘llik 75 yashar Zuhra bibi Qilichova o‘z armonlarini allada ana shunday kuylaydi. U bizga ona-yu buvilari ham shunday allani kuylashganini, bu allani aslida buvijonidan o‘rganganini, binobarin, bu yodgor qo‘shiq ekanini alohida ta’kidladi.

---

### **Nazorat savollari**

1. Bolalar folklorining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Alla qo‘shiqlarining badiiyati haqida nimalarni bilasiz?
3. Erkaklar allalari nima deb nomlanadi va ular qanday ijro etiladi?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Islom Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. T., “O‘zbekiston”. 2009.
3. Alaviya M. Lirik qo‘shiqlar // O‘zbek folklori ocherklari.-Toshkent.: Fan, 1998, 1-tom, 244-254-betlar;
4. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. DDA. T., 1995;
5. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatish.-Toshkent.: Fan,
6. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. - Toshkent.: Fan, 1886;
7. Navro‘z. Navro‘z bayrami bilan bog‘liq qo‘shiqlar, afsona va rivoyatlar. To‘plab, nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, M.Jo‘rayev. – Toshkent.: Fan, 1992;
8. Navro‘z qo‘shiqlari (Tadqiqot majmua, Turdimov Sh, Eshonqulov J.),-T.: “O‘zbekiston ” 2012.
9. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. T.: Fan, 2010. 307 b.

10. Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. Дисс., канд.филол., наук. Т.: 1987. – 184 с.
11. Eshonqulov J. O‘zbek xalq qo‘shiq-lari badiiyati masalalari. Toshkent San'at va madaniyat institutida 2015 yil 16 aprel kuni «Xalq ijodi milliy ma'naviyatimiz asosi» mavzuida bo‘lib o‘tgan bo‘lib o‘tgan ilmiy anjuman materiallari. –Toshkent, 2015. – B.44–48.

## GLOSSARIY

**An’ana** – folklorda o‘tmish ijodkorlar tamonidan to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avlod-dan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi.

**Janr** (fr. genre – jins, tur, xil) – adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarni tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha. J. termining qo‘llanishida turlichalik kuzatiladi: ayrim manbalarda J. termini adabiy tur (epos, lirika, drama) ma'nosida ishlatilsa, boshqa birlarida ancha tor ma'noda (epos – tur, roman – xil, tarixiy roman – janr) qo‘llanadi.

**Lirika** (yun. lyra – musiqa asbobi, qadimda she'rlar uning jo‘rligida o‘qilgan) – badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. L.da voqelik lirik sub'ekt his-tuyg‘ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq ob'ekti emas, sub'ekti birlamchidir.

## TEST TOPSHIRIQLARI

1. Qo‘shiq janrining ta’rifini aniqlang.
- A. So‘z o‘yini ko‘chma ma'noli so‘z va janrlarni ilg‘ab olish va unga javob topa bilish, sha'ma qilish san'ati
- B. Hayot haqiqati bilan bog‘liq, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oya tashuvchi janr



C. Turkiy «qo‘shmoq» fe‘lining o‘zagidan yasalgan bo‘lib, misraga misrani qo‘shib kuylash, aytish ma'nosini anglatuvchi og‘zaki lirik turga mansub mustaqil janr

D. Syujet diologi asosida qurilgan haja va yengil yumorga moyil mubolag‘ali tasvirlanishi bilan ajralib turuvchi janr

2. Allalar kompozitsion jihatdan qanday allalardan iborat?

A. Voqeaband

B. Parokanda

C. Kulgili

D. Yakka syujetli

## **5-mavzu: Lirik qo‘shiqlar**

### ***Reja:***

1. Qo‘shiq – lirik janr.

2. Qo‘shiqlar tasnifi.

3. Xalq qo‘shiqlarining badiiy xususiyatlari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** lirik janr, ko‘nalar, alyor, an’ana, jonlantirish, sifatlash, o‘xshatish, tarixiy qo‘shiqlar, xalq lirikasi.

Inson borki ishq bor, muhabbat bor. Avloddan keyin kichik avlod, nasldan keyin nasl keladi, ammo insondagi muhabbat tuyg‘usi, qalbda ehtirosli his-tuyg‘ular uyg‘onishi o‘zgarmaydi. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonulug‘oti-t-turk» asarida shunday to‘rtlik bor:

*Bulnar meni ulas ko‘z,*

*Qora mengiz qizil yuz.*

*Andin tomar tugal tuz,*

*Bulnap yana ul qachar.*

Mazmuni:

*Bu mast ko'zli (seviklim)*

*Qora xoli va qizil yuzi bilan (meni asir qildi).*

*Yanoqlaridan shirinlik tomib, meni asir qildi-yu,*

*Lekin keyinidan (tutqich bermay), mendan qochib ketdi.*

Misralardagi so'zlarni tushunish qiyin ekanini hisobga olmasak, qo'shiqdagi his-tuyg'u kechagina yaxshi ko'rgan qizi qochib ketgan shoirtabiat yigitning ko'ngil izhoridan farq qilmaydi.

Biz qo'shiq deb atayotgan janr adabiyotlarda ko'rsatilishicha, «shlok», «takshut», «ir» (yir), «kug» kabi atamalar bilan qadimdan atalib kelgan. Mahmud Koshg'ariy esa bunday asarlarni «qoshug'» - qo'shiq, qasida, she'r tarzida beradi. So'zning ma'nosini sharhlashdagi to'rtlikda «malikaga mendan maqtov yetkaz»<sup>18</sup> mazmunidagi misra borki, izohdagi qasida atamasini qo'llash ham o'zini oqlaydi.

Xalq qo'shiqlari og'zaki ijodimizdagi lirika jinsiga mansub janrdir. Bu janrning boshqa turdagi asarlardan farq qiluvchi bosh xususiyati unda ijodkorning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, ruhiy holatini ifodalashdan iborat.

Xalq og'zaki ijodidagi lirik tur hisoblangan qo'shiq quyidagi janr xususiyatlariga ega:

1. Qo'shiqlarda inson kechinmalari, qalb izhorlari aks etadi. Shuning uchun ular lirik jinsga mansub janr deb hisoblanadi.
2. Qo'shiq shaklan she'riy ko'rinishda bo'ladi. O'zbek xalq qo'shiqlari, asosan, barmoq vaznda, ba'zan aruzda yaratiladi.
3. Ko'pincha, xalq qo'shiqlari to'rt misradan iboratdir. Go'zal ruhiy holatni ifodalash xususiyatiga ega. Ayni paytda bir necha bandlardan iborat muayyan mavzuni yorituvchi qo'shiqlar ham bor. Ba'zan 6, 8 misrali

---

<sup>18</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғоти-т- турк. I том. - Т.: Фан, 1960. – Б. 357.

namunalar ham uchraydi. 4 misralilari *a b a b; a a b b; v v g g; a a a b; a a a a* tarzda qofiyalanadi.

4. Qo‘shiqning kuyi bo‘ladi. Biror asbob jo‘rligida aytiladi. Aksari xalq qo‘shiqlari ijrosida asbob jo‘rligi shart emas. Ijrochi xonish usulida qo‘shiq aytishi mumkin.

**Qo‘shiqlar tasnifi.** Xalq qo‘shiqlari og‘zaki ijoddagi boshqa janrlar kabi mavzu yo‘nalishiga ko‘ra turlarga bo‘linadi.

**Lirik qo‘shiqlar.** Avvalo, ta’kidlash lozimki, xalq qo‘shiqlari mavzuyida misol qilib keltirgan, nazariy ma’lumot berilgan, tahlilga jalb qilingan hamma to‘rtlik shaklidagi she’riy asarlarning hammasi badiiy adabiyotning lirik jinsiga mansubdir. Shu bois «lirik qo‘shiqlar» atamasini shartli tushunish maqsadga muvofiqdir. Aslida folklorshunoslikda lirik qo‘shiq deganda, ishq-muhabbat izhor etilgan to‘rtliklarni nazarda tutish qabul qilingan. Agar mehnat, marosim asarlarida yetakchi maqsad ish qurollari, mavsumdagi tabiat o‘zgarishlari, marosim tartiblari his-tuyg‘u vositasida aks etsa, lirik qo‘shiqlarning asosiy vazifasi muhabbat tuyg‘ularini ifodalash bilan belgilanadi. Binobarin, lirik qo‘shiqlarda mohiyatan ichki kechinmalar, ishq-muhabbat dardiga yo‘liqishdan mamnunlik kayfiyati ustuvordir.

Har bir yigit-qiz balog‘at yoshiga yetganda muhabbat tuyg‘usini boshidan kechiradi. Insonning sevishi yoki sevilishi, ishq kechinmalariga yo‘liqish tashvishlari uni shoirlikka undaydi. Lirik qo‘shiqlar matnini o‘rganish ularni faqat muhabbat tuyg‘usini yurak qon tomirlaridan his qilgan shaxslargina yaratishi mumkin, degan xulosaga olib keladi. Endi ikki tarafdin iborat bo‘lgan ishq kechinmalarida bir tarafdin ishtirok etsa yoki o‘rtada muayyan to‘siqlar paydo bo‘lsa, muhabbat savdosi avj oladi, yechimsiz holatda insonni qiynaydi. Masalan:

*Qizil gulni ekasan-da, ketasan.*

*Parvarish qilmasang, ekib netasan?*

*Yo 'liga intizor qilgan qora ko 'z,  
Oxir mening bu boshimga yetasan.*

misralarini hayotdan qoniqqan, tashvishi yo'q odam aytishi mumkin emas. Atigi sakkiz so'zdan iborat bu matnda inson taqdiri, qismati aks etganiga hech kim shubha qilmasa kerak.

Lirik qo'shiqlar, eng avvalo, lirikligi bilan insonni o'ziga jalb qiladi. Ularda lirik qahramon fikri tuyg'u vositasida ifodasini topadi. Ayrim qo'shiqlar matnidagi muayyan misrani o'zgartirish ularning yaratilishi maqsadiga ham ta'sir qiladi, umumiy mazmun mohiyatiga ham ta'sir qiladi:

*Gulijon o 'zi chaqqon,  
Qoqi gulini taqqan,  
Bir kulishi bor uchun  
Oyijoniga yoqqan.*

Endi «Oyijoniga»ni «Sevgilisiga», «Dadajoniga», «Buvijoniga», «Opajoniga» va h.k. so'zlar bilan almashtiraylik. Yoki «Gulijon» ismini o'zgartiraylik. «Qoqi gul» o'rniga «atirgul» qo'yaylik. Xullas, bir qo'shiq asosida bir necha namunalar vujudga kelishi mumkin. Shunda gap seviklisi haqida ketsa, ishqiy mazmun; onasi-otasi haqida ketsa qiz farzandni erkalash mazmuni yetakchi bo'lib qoladi. Ammo har ikkala holatda ham lirik qo'shiq mohiyatan katta o'zgarishga duch kelmaydi.

Xullas, lirik qo'shiqlar mohiyat nuqtai nazardan inson qalbining izhori darajasida e'zozlangan asarlar turkumini tashkil qiladi.

**ALYOR** — xalq qo'shiqlarining bir turi, o'tmishda jo'ra (ulfat)lar davrasida qadah tutib aytilgan. Kosagul (soqi) qo'lida bo'za yoki may to'ldirilgan qadah tutib, davradagilarga: «Alyor bo'lsin-ay, Xo'jam yor bo'lsin-ay, Xo'jam bergan bu davlatga dushman zor bo'lsin-ay»,— dyeya

murojaat qilgan. Qadahni (kosani) olgan suhbatdosh o'z navbatida jo'raboshi xohishiga ko'ra, biror qo'shiq yoki raqs ijro etgan. Bunday paytda childirma jo'rlikida kuylanadigan maxsus qo'shiqlar ham bo'lgan. Ular ko'nalar, haqqonlar va bo'zagarlar qo'shig'i deb ham ataladi. Bo'zagarlar qo'shiqlari ikki band (to'rtlik)dan iborat bo'lib, birinchi bandning birinchi misrasi qaysi so'z bilan boshlansa, ikkinchi bandning birinchi misrasi ham o'sha so'z bilan boshlanishi shart. Alyordan xalq dostonlarida ham keng foydalanilgan. Masalan, Barchinni izlab borayotgan Hakimbek yo'lda, qabristonda uxlab qolganida, ular ruhining aytishuvi: «Kosa ushlab qo'lim toldi, Biyning qizi mahtal bo'ldi, Xon to'ram, sizga ne bo'ldi, Oling, alyor-alyor», buning yorqin dalilidir.

***Tarixiy qo'shiqlar.*** O'zbek xalq og'zaki ijodidagi tarixiy qo'shiqlar bevosita bugungi kun repertuarida nisbatan kam uchraydigan ijro namunasidir. O'tmishda tarixiy qo'shiqlar ommaviy janr hisoblanganiga shubha yo'q. Bir tomondan, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'oti-turk» asaridagi Alp Erto'nga marsiyalarini ham tarixiy qo'shiqlar sirasiga qo'shish mumkin.

XX asr boshlarida Namoz boshlagan harakatlar xalq tilida doston bo'lgan. Namoz yoki Niyozga bag'ishlab qo'shiqlar vujudga kelgan. Keyinchalik Isfandiyor va uning amaldorlari kirdikorlarini fosh etuvchi to'rtliklar yaratilgan:

*Isfandiyor xon bo'ldi,*

*Bag'rimiz to'la qon bo'ldi.*

*Azroildan kam emas,*

*Olajagi jon bo'ldi.*

Bu to'rtliklar xalq ijtimoiy hayotining hamrohi bo'ldi. Tarixiy vaziyatga nisbatan ifodalangan g'azab va xonga nisbatan nafrat zamonga xalq bergan

baho darajasida edi. Aniqrog‘i, jazolov hukmi bo‘lib jarangladi.

Umuman, XX asrning 15-25-yillari o‘rtasida yaratilgan tarixiy qo‘shiqlar son jihatdan ko‘p, sifat jihatdan mazmunli edi. Ehtimol, bu holat yurtimiz tarixiga oid turli yo‘nalishdagi tarixiy voqyealarning ko‘p ro‘y berganiga bog‘liqdir. Isfandiyor, Said Ahmad, Nikolay kabi podshoh va xonlarning adolatsizligi va bosqinchilik urushlariga bo‘lgan keskin qoralovchi ayblar mazkur qo‘shiqlarning bosh mazmunini tashkil qildi.

Shunday qilib, tarixiy qo‘shiqlar bevosita aniq voqyea hodisa yoki aniq qahramon ishtirok etgan tarixiy davr haqida yaratilgan asar namunasi hisoblanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Xalq lirikasi genezisi va tadrijiy bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Lirik qo‘shiqlarning tadqiq etilishi va chop qilish tajribalari haqida gapiring.

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Islom Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. T., “O‘zbekiston”. 2009.
3. Alaviya M. Lirik qo‘shiqlar // O‘zbek folklori ocherklari.-Toshkent.: Fan, 1998, 1-tom, 244-254-betlar;
4. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. DDA. T., 1995;
5. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatish.-Toshkent.: Fan,
6. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. - Toshkent.: Fan, 1886;
7. Navro‘z. Navro‘z bayrami bilan bog‘liq qo‘shiqlar, afsona va rivoyatlar. To‘plab, nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, M.Jo‘rayev. –

Toshkent.: Fan, 1992;

8. Navro‘z qo‘shiqlari (Tadqiqot majmua, Turdimov Sh, Eshonqulov J.),-T.: “O‘zbekiston ” 2012.

9. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. T.: Fan, 2010. 307 b.

10. Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. Дисс., канд.филол., наук. Т.: 1987. – 184 с.

11. Eshonqulov J. O‘zbek xalq qo‘shiqlari badiiyati masalalari. Toshkent San'at va madaniyat institutida 2015 yil 16 aprel kuni «Xalq ijodi milliy ma'naviyatimiz asosi» mavzuida bo‘lib o‘tgan bo‘lib o‘tgan ilmiy anjuman materiallari. –Toshkent, 2015. – B.44–48.

## GLOSSARIY

**An’ana** – folklorda o‘tmish ijodkorlar tamonidan to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi.

**Janr** (fr. genre – jins, tur, xil) – adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarni tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha. J. termining qo‘llanishida turlichalik kuzatiladi: ayrim manbalarda J. termini adabiy tur (epos, lirika, drama) ma'nosida ishlatilsa, boshqa birlarida ancha tor ma'noda (epos – tur, roman – xil, tarixiy roman – janr) qo‘llanadi.

**Lirika** (yun. lyra – musiqa asbobi, qadimda she'rlar uning jo‘rligida o‘qilgan) – badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. L.da voqelik lirik sub'ekt his-tuyg‘ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq ob’ekti emas, sub’ekti birlamchidir.

**Jonlantirish** - kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko‘chirishdir. Masalan, *xo‘mraygan bulutlar* deyiladi. Bunda kishilarga xos xo‘mrayish jonsiz bulutga ko‘chirilgan bo‘ladi. Asarlarda tog‘- Tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o‘xshatib gapirtiriladi.

**Sifatlash** - narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko'rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo'ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo'lib, unda narsa-hodisalarning o'tkinchi belgilari ta'kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo'lib, bunda narsa--hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

**O'xshatish** - narsa-buyumning ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O'xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.

## TEST TOPSHIRIQLARI

1. Xalq og'zaki ijodi fanining mazmuniga berilgan ta'rif qisqacha javoblarning qaysi birida to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Xalqning urf-odatlarini, rasm-rusumlarini o'rganuvchi fan

V. Xilma-xil janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, muayyan xalqning dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiruvchi fan

S. Tilshunoslik qonunlarini o'rganuvchi fan

D. Badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini, rivojlanish qonuniyatlari va xarakterini, taraqqiyot bosqichlarini o'rganuvchi fan.

2. Qo'shiq janrining ta'rifini aniqlang.

A. So'z o'yini ko'chma ma'noli so'z va janrlarni ilg'ab olish va unga javob topa bilish, sha'ma qilish san'ati

B. Hayot haqiqati bilan bog'liq, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi janr

C. Turkiy «qo'shmoq» fe'lining o'zagidan yasalgan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nosini anglatuvchi og'zaki lirik turga mansub mustaqil janr



D. Syujet diologi asosida qurilgan haja va yengil yumorga moyil mubolag‘ali tasvirlanishi bilan ajralib turuvchi janr

3. Oq olma, qizil olma, Olamga nazar solma. Otam senga bermaydi, o‘z bilganingdan qolma. Ushbu lirik qo‘shiqda «olma» qanday badiiy funktsiyani bajaryapti?

- A. Takror
- B. Jonlantirish
- C. O‘xshatish
- D. Ramz

4. **Suv kechgani eringan,  
O‘g‘il tug‘ib kerilgan.  
Qaynonasiga salom.**

Ushbu parcha mazmuniga ko‘ra qanday nomlanadi?

- A. Marsiya
- B. Alla
- C. Kelin salom
- D. Lapar

5. Quyidagi parcha mazmunan qaysi qo‘shiq turiga mansub?

**Yor tashlab ketding meni,  
Hardamda yod etding meni.  
Bo‘ylaring bir ko‘rsatib,  
Ko‘rmakka zor etding meni**

- A. lirik qo‘shiq
- B. tarixiy qo‘shiq
- C. dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiq
- D. chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiq

6. Avazning bir yo‘li Guli xiromon,  
Shunga buyurdi Go‘ro‘g‘li sulton. Qabul qildi un oltida Avazxon,  
Xiromondan aytayinmi, qadrdon.

Ushbu parcha mazmunan qanday nomlanadi?

- A. yor-yor
- B. terma
- C. lapar
- D. qo‘shiq

7. Eng qadimgi xalq qo‘shiqlari haqida ma'lumot beruvchi asarni aniqlang.

- A. «Qutadg‘u bilig»
- B. «Me‘zon ul-avzon»
- C. «Devoni lug‘otit turk»
- D. «Avesto»

## **6-mavzu: Latifa va lof janrlarining o‘ziga xos xususiyatlari**

### **Reja:**

1. Latifa – nozik fikrlash san'ati.
2. Loflarning janr xususiyati.

**Tayanch so‘z va iboralar:** latifa, lof, askiya, shakl va mazmun, mubolag‘a, lutf, xalq dramasi.

**1. Latifa – nozik fikrlash san'ati.** O‘zbeklar dunyodagi boshqa xalqlar kabi hazilni, taqlidni, kulgini yaxshi ko‘radilar. Kulgi insonga sog‘lik, yaxshi kayfiyat, o‘z-o‘zidan qoniqish tuyg‘usini bag‘ishlaydi. Xalqimizning dono farzandlari Yusufjon qiziq, Aka buxor, G‘anijon Toshmatov kabilar mashaqqatli kechgan paytlarda ham yurtimiz ahliga tetiklik, umid, ishonch ulashganlar. Bunday natijaga erishish o‘z vaqti

uchun juda og‘ir kechgan. Latifalar, loflar, askiya, xalq dramasi asarlari, muqallidchilikdan unumli foydalanish zukko va iqtidorli insonlarni xaqiqiy ma'noda xalq sevgisini qozonish sharafiga muyassar qildi.

Inson qalbidagi tashvishni, tanasidagi xastalik xurujini chetroqqa surishda kulgili latifalar juda samarali vosita hisoblangan. «Latifa» atamasi arabcha «lutf» (لطف) so‘zidan olingan bo‘lib, nozik fikrlash, yaxshilik qilmoq, muruvvat ko‘rsatmoq, sharaflamoq ma'nolarini anglatadi.

Nasriddin Afandi nomi bilan latifalar mazmunining bog‘lanib, uyg‘unlashuvi XIX asr oxiri XX asr boshlari bilan belgilanadi. O‘zbek folklorshunosligi fani asoschisi, professor Hodi Zarifov qayd qilishiga binoan, Nasriddin Afandi nomining o‘zbek latifalarida shuhrat topishi yurtimizda matbaaning paydo bo‘lishi, Nasriddin Afandi latifalarining kitob tarzda nashr ettirilishidan boshlangan.

O‘zbek Nasriddin afandi latifalarida bosh qahramon o‘ta hozirjavob, o‘ta zukko, dono va tadbirkor inson sifatida gavdalanadi. Hayotda uni so‘z bilan, xatti-harakat bilan yechimi yo‘q vaziyatga tushirish mumkin emas. Chunki aqlli, mutafakkir Nasriddin afandi qiyofasida butun xalqning, millatning so‘zga chechanligi, zakiy, ya'ni nozik fikr yuritish fazilati o‘z ifodasini topgan. Har bir latifa matnida uni o‘ylab topgan shaxs aqli, vaziyatni aniqlash kayfiyati va zakovati namoyon bo‘ladi. Latifalarning e'tiborli, tinglovchini o‘ziga jalb qiladigan jihati shundaki, ularda savol-javob qilayotgan taraflar bir-birini mutlaqo yechimi topilmas vaziyatga tushirishga urinadilar. Ayniqsa, Nasriddin afandi qismati latifaning yakuniy qismiga yetgunga qadar juda og‘ir va chorasiz taqdir sharoitida tasvirlanadi. Ammo xalq Nasriddin afandi tarafida bo‘lgani uchun ana shunday mushkul vaziyatdan ham o‘z topqirligi, so‘zga ustaligi bilan qahramonimiz yechim topib keta oladi.

Afandi latifalarida afandidagi ikkinchi xislat – uning nihoyatda soddaligi, aniqroq aytsak, no‘noqligini namoyish qilish bilan izohlangan. Bunday namunalarda biz afandining soddaligidan, hayotdagi ko‘ngilsiz voqyealarni

o‘ziga olmasligidan zavqlanamiz. Afandining afandiligi uning afandiligi bilan sharhlanadi. Ya'ni bironta es-hushi joyida odam qilishi mumkin bo‘lmagan qarorni aynan afandi qabul qiladi.

Nasriddin afandi ko‘chada ketayotib, kichkina bir ko‘zgu – oyna topib olibdi. Uni qo‘liga olar ekan, o‘z aksini ko‘rgani zahoti: «E, kechirasiz, oyna siznikimidi?» - deb tashlab yuboribdi. Oyna sinibdi. Shunda afandi: «Kerak bo‘lmasa, ayta qolmaysizmi? O‘zim olar edim-ku», - degan ekan.

Bunday latifalar bilan tanishish, ayniqsa, hikoya qilish mahoratiga ega inson ijrosida tinglash odamga huzur bag‘ishlaydi. Bu turdagi latifalarda tinglovchi sodda afandi qarorlaridan kuladi. Lekin shuni ham qayd qilish lozimki, xalq bu bilan nima demoqchi ekanini tushunib yetishga ham harakat qilish zarar keltirmaydi. Ehtimol, dono xalq shu kabi latifalar vositasida «Sen bunchalik sodda bo‘lma!» demoqchimi? Xulosa chiqarish har kimning o‘ziga havola.

**2. Loflarning janr xususiyati.** Xalq og‘zaki ijodidagi loflar mubolag‘a san'atiga asoslanadi. Lug‘atda «lof» - fors tilidan olingan so‘z bo‘lib, quruq (puch) gap, safsata, maqtanchoqlik. 1.Folklordagi hajviy-yumoristik janrlardan biri: haddan tashqari bo‘rttirilgan, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan yolg‘on gap»<sup>19</sup> deb izohlangan.

Loflar xalq og‘zaki ijodining latifalar va askiya kabi kulgi uyg‘otuvchi ommaviy janri hisoblanadi. Asosan, janrda qo‘llanadigan san'at mubolag‘aning ig‘roq va g‘uluvv turi hisoblanadi.

Loflar badiiy adabiyotning epik turi (jinsi)ga mansub janr. Uning hajmi cheklangan: ikki-uch, uch-to‘rt jumladan iborat. Asosan, dialogda qatnashgan ikki lofchi suhbatidan bir lavha tarzida bo‘ladi. Ularda bo‘rttirilgan yolg‘on voqeya to‘qishda mohir, tajriba to‘plagan lofchi deb hisoblangan shaxslar musobaqalashadi. Har ikki taraf aytayotgan voqyeasining yolg‘on va to‘qima ekanini juda yaxshi biladi, lekin mutlaqo

---

<sup>19</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Иккинчи жилд. - Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 509.

bu fikrini ochiq aytmaydi. Bu shart buzilsa, lof butun mohiyatini, jozibasini yo‘qotadi. Aksincha, bir lofchi suhbatdoshining bo‘rttirilgan yolg‘on gapini aksariyat hollarda tasdiqlaydi, e‘tiroz bildirmaydi. Faqat lofning mazmunidan xabar topganidan so‘ng unikidan o‘tkirroq, yana ham mubolag‘ali, yolg‘onroq javob topishi lozim. Muhimi, ikkinchi lofchi keyin javob bergani uchun lof shu o‘rinda tugaydi. Ba‘zan dialoglar bir oz davom etishi mumkin, lekin bari bir so‘nggi fikr bildirgan lofchi g‘olib chiqaveradi.

Latifalarda, lofda, askiyada kulgiga sabab bo‘lgan jumlaning kashfiyot darajasida baholash mumkin. Ularni o‘ylab topgan shaxs katta hayot tajribasiga ega bo‘ladi, ayniqsa, vaziyatni to‘g‘ri baholab kulgi hosil qilish mahoratini namoyish etadi. Buning uchun u til boyligidan ham yaxshi foydalana olish fazilatiga ega bo‘lishi zarur.

### **Nazorat savollari**

1. Latifa va loflarning farqli jihatlarini sanab bering.
2. Loflarning janr xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Muhammadyev R. Askiya. – T., 1962.
2. Askiyada ijrochilik mahoratini oshirish yo‘llari (metodik tavsiyanoma). Tuzuvchilar: Jo‘rayev M, Sobitova T. - T, 1985.
3. Said Anvar. Muhiddin Darvesh. - T.: Sharq NMAK, 2006.
4. Razzoqov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va yumor. - T.: Fan, 1965.
5. Safarov O. O‘zbek xalq oG‘zaki ijodi. – T., “Musiqqa”, 2010
6. Madayev O. O‘zbek xalq oG‘zaki ijodi. T.: “Mumtoz so‘z”, 2010
7. Yo‘ldosheva F. O‘zbek latifalarida Nasriddin afandi obrazi. - T.: Fan, 1979.

8. Shoh Akbar va dono Birbol. - T., 1994.
9. Afandi latifalari. - T., 1989.
10. Sarimsoqov B. Lof / O'zbek folklori ocherklari. 2-tom. - T.: Fan, 1989.

## GLOSSARIY

**Janr** (fr. genre – jins, tur, xil) – adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarini tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha. J. termining qo‘llanishida turlichalik kuzatiladi: ayrim manbalarda J. termini adabiy tur (epos, lirika, drama) ma'nosida ishlatilsa, boshqa birlarida ancha tor ma'noda (epos – tur, roman – xil, tarixiy roman – janr) qo‘llanadi.

**Shakl va mazmun** - voqea-hodisalarning tashqi ko‘rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.

**Metafora** - yunoncha “metaphora” so‘z bo‘lib, “ko‘chirish” degan ma'noni anglatadi. U narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan bo‘ladi. Biroq metafora aynan o‘xshatish emas.

**Metonimiya** - ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiya yunoncha “metonomadzo” so‘z bo‘lib, “qayta nomlash”dir.

**Sinekdoxa** - yunoncha “synecdoche” so‘z bo‘lib, unda bir qism yoki bo‘lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Ya'ni, bir butun hodisa orqali uning ayrim bo‘lagi haqida mulohaza yuritiladi.

**Jonlantirish** - kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko‘chirishdir. Masalan, *xo‘mraygan bulutlar* deyiladi. Bunda kishilarga xos xo‘mrayish jonsiz bulutga ko‘chirilgan bo‘ladi. Asarlarda tog‘- tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o‘xshatib gapirtiriladi.

**Sifatlash** - narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan

alohida ajratib ko'rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo'ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo'lib, unda narsa-hodisalarning o'tkinchi belgilari ta'kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo'lib, bunda narsa--hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

**O'xshatish** - narsa-buyumning ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O'xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.

**Mubolag'a** narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag'a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko'rsatish maqsadida qo'llanadi.

### **TEST TOPSHIRIQLARI**

1. *Latifalarning janr sifatida shakllangan davri qaysi asrga to'g'ri keladi?*

- A. VII-VIII
- B. XII-XIV asrlar
- C. IX-XI asrlar asrlar
- D. XIV-XV asrlar

2. *Latifalarning o'ziga xos belgilari ifodalangan qatorni toping.*

- A. Yumor
- B. Satira
- C. Latifalardagi so'z o'yini
- D. A va B

3. *Latifa va loflarning nasriy turdagi janrlar sistemasidan ajratib turadigan xususiyatini aniqlang.*

- A. Latifalarda so'z o'yini
- B. Syujeti ixcham bo'lishi
- C. Latifada tanqidiy fikr bo'lishi
- D. Latifalarning kulgi uyg'otishi

4. *Latifalar mazmuni va tanqidiy yo'nalishiga ko'ra necha xil bo'ladi?*

- A. So'z o'yiniga va kulgi xosil qiluvchi
- B. Satirik va yumoristik
- C. Lirik va epik
- D. Amaldorlarni tanqid qiluvchi, poraxo'rlarni tanqid qiluvchi

5. Lof janri uchun xos bo'lgan badiiy komponentlar (unsurlar) javoblarning qaysi birida to'g'ri berilgan?

- A. *hijo, qofiya, radif*
- B. *dialog, yumor, mubolag'a*
- C. *syujet, xotima, muqaddima*
- D. *eskiz, kartina, radif*

7. Javoblarning qaysi birida latifaga xos bo'lgan kompozitsion elementlar keltirilgan?

- A. *turoq, ta'zod, sifatlash*
- B. *siolog, yumor, kinoya*
- C. *monolog, trilog, drama*
- D. *so'ngso'z, rivoyat, lirik chekinish*

8. «Afandi bir kun gaplashib o'tirib, a'lamni «siz axmoq odamsiz» deb qo'ydi. A'lam uni podshoning oldiga sudradi Podsho afandiga bir qancha do'q-po'pisa qilgandan keyin: Darrov uzr ayt, siz axmoq emassiz, kechirasiz degin, yo'qsa, hozir jallodni chaqirama! – deydi Afandi a'lamga qarab dedi:– «Siz axmoq odam emassiz! Kechirasiz!»

Ushbu latifada qanday badiiy san'at qo'llangan?

- A. *so'z o'yini*
- B. *istiora (metaform o'xshatish)*
- C. *o'xshatish*
- D. *tazod (qarshilantirish)*

## **7-mavzu: Askiya**

### **Reja:**

1. Askiya o'zbek xalqining milliy merosi sifatida.
2. Askiyaning tarkibiy qismlari.
3. Askiya san'atini o'rgangan olimlar.

**Tayanch so'z va iboralar:** askiya, shakl va mazmun, mubolag'a, lutf, xalq dramasi, payrav, qolganlari gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz;



o‘xshatdim, qofiya, tugal, bo‘lasizmi, rabbiya, afsona, safsata.

**Askiya o‘zbek xalqining milliy merosi sifatida.** «Askiya» so‘zining asosi arab tilidagi «zakiy»dan olingan bo‘lib, sof fikrli, o‘tkir zehqli, zakiy – nozik tabiat bilan fikr yuritish ma'nolarini anglatadi. «Azkiyo» esa ko‘plik shaklidir. Fikrimizcha, «k» jarangsiz undosh tovushi ta'sirida «z» jaranglisi jarangsizlashib «s»ga aylangan bo‘lishi mumkin.

Askiya san'atini ilmiy o‘rgangan olim Rasul Muhammadiyev o‘zbeklarning askiya aytishi qadim zamonlardan boshlanganini qayd etgan. Xususan, XV asrda yashagan shoir Zayniddin Vosifiy o‘z xotiralarida Hirot shahrida Mirsarbarahna, Burhoniy Gung, Hasan Voiz, Said G‘iyosiddin, Sharfiy, Halil Sakhob, Muhammad Badaxshiy kabi o‘tkir so‘z ustalari borligini aytib o‘tgan. Hunarmandchilik rivojlangani sari askiya ham keng ommalashdi. Ayniqsa, bo‘z, atlas to‘qiydigan kosiblar qo‘l va oyoqlari muttasil harakatda bo‘lgani bois yo qo‘shiq, ashula aytishgan, yo askiya bilan ko‘ngilni ovutishgan. Bu jihatdan Farg‘ona vodiysi aholisi alohida ajralib turgan. Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mamayunus Tillaboev, Erka qori Karimov, Amin buva, G‘anijon Toshmatov, Tursun buva Aminov, Abdulhay Maxsum kabi mashhur so‘z ustalari askiya san'atini rivojlantirishda munosib hissa qo‘shdilar.

Askiya san'atining asosini badiiy adabiyotdagi iyhom deb ataluvchi badiiy tasvir vositasi tashkil etadi.

Masalan, Rasul Muhammadiev 1962 yilda e'lon qilgan «Askiya» kitobida quyidagi matnni keltiradi:

«Qodirjon aka:

- Ikromiddin, bu yoqqa qarang, bizga pishirishingiz bitta osh, qovoq ham solasiz-a!

Ikromiddin:

- Qodirjon aka, sizlardaqa aziz mehmonlarga atab har xil ovqat qilganmiz: bu sho‘rva, oshqovoqda...

Ikromiddin:

-... bir oz u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tiringlar, boshqa ovqat qilaman: qovoq-siz!

Endi askiyada qayta-qayta takrorlangan «qovoq» so'ziga diqqat qilamiz. Avvalo, «qovoq» so'zining ma'nolarini ko'rib chiqaylik. Birinchidan, palak otib o'sadigan poliz o'simligi. Ikkinchidan, shu o'simlik qobig'idan tayyorlangan idish. Unga, odatda, sut, ovqat solib saqlanadi. Uchinchidan, odamning qoshi ostidagi ko'z kosasini qoplovchi teri. Askiya matnida uchta ma'noning hammasi faol ishtirok etadi.

Kulgi hosil qilishning yana bir usuli askiyabozlarning laqablari bilan bog'liq so'z o'yinlaridir. Haqiqiy mohir askiyabozlar raqiblarining laqablarini askiya matniga shunday singdirib yuborishar ediki, faqat askiyani nozik tushunadigan tinglovchigina uning ma'nosiga fikr qilib yetib borar edi.

Mashhur hofiz Mamayunus (laqabi kal) poezdda ketishayotganda do'sti Erka qorini (ko'zi ojiz) askiyaga tortar ekan, qori akaning ko'zi ojizligiga shama qilib:

- Turing, qori aka! Ko'r otga (kurortga) keldingiz! – deydi. Erka qori yostiqdan boshini ko'tarar ekan, shoshib-pishib kupe derazasidan tashqariga qaragan bo'ldi-da, darhol yuzini Mamayunus aka tomon burib:

- Hovliqmay qoling, Mamayunus! Sho'rtepa-ku! – dedi.

Matnni tahlil qilishda tinglovchi «ko'r ot», «sho'rtepa» so'zlarining ma'nosini shu zahoti zakiylik bilan ko'zi ojiz, kal ma'nolarida tushunib yetmasa, askiyaning butun mohiyati o'z qadrini yo'qotadi. Natijada, Mamayunus akaning mahoratini ham, Erka qorining topqirligini ham baholay olmaydi.

Askiya tarkibida kichik turlar mavjud. Ularning eng ommalashgani payrav, qolganlari gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz; o'xshatdim, qofiya, tugal, bo'lasizmi, rabbiya, afsona, safсата kabi nomlar bilan ataladi.

Payrovda askiyabozlar tinglovchilar auditoriyasining kasbi, hududi,

mahalliy sharoit xususiyatlariga ko'ra o'zaro kelishib mavzu tanlashadi. Mavzular dehqonchilik, kosiblik, o'qituvchilik, badiiy asarlar, maqollar, paxta, imorat, tabobat va boshqa yo'nalishlarda bo'lishi mumkin.

Askiya yuzasidan ma'lumot berishda bir masalani esdan chiqarmaslik lozim. Gap shundaki, askiya tabiatida parnografiya – uyatli ma'no ifodalash xususiyati bor. Aytish kerakki, umuman, xalq og'zaki ijodidagi deyarli hamma janrlarda uyatli tushunchalarni pardali tasvirlash odatini inkor qilib bo'lmaydi. Ayrim qo'shiqlarda, topishmoqlarda, latifalarda, dostonlar va ertaklarda ba'zan ijrochilar tinglovchi auditoriyasini yanada qizdirish, e'tiborni o'ta jalb qilish, kulgi darajasini ko'tarish maqsadida bu usuldan foydalanganlar. Ammo odob chegarasi ularning juda erkin so'z ishlatish va harakatlariga yo'l qo'ymagan. Shu bilan birga askiya ijrosida iyhom san'atidan foydalangan holda parnografik ma'noli askiya matnini qo'llash tajribada ko'proq namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham askiya erkaklar o'rtasida aytilganda, ayollarning davrada qatnashishi ma'qul sanalmagan. Folklorshunoslikda ayollar o'rtasida alohida askiyalar bo'lib turgani haqida ham ma'lumotlar bor.

Shunday qilib, askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining so'z o'yini asosida shakllangan va ommalashgan o'ziga xos janri sifatida baholanishi mumkin. Askiya jozibasi asrlar davomida ota-bobolarimiz tomonidan ijro etib kelingan. Uning taraqqiyotiga bugungi kunda Jo'raxon aka Po'latov, Bahodir Shokirov, Ne'matjon Toshmatov, Akromjon Anvarov, Mansurjon Oxunov, Sodiqjon Hasanov, Muhammadsiddiq Miryaev, Ubaydulla Abdullaev, Ma'ruf Rahimov, Jaloliddin Rahimov, Xotamjon Hakimjonov, Xotamjon Teshaboev kabi so'z san'atkorlari munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

**1. Askiya o'zbek xalqining milliy merosi sifatida.** Askiya haqida fikr yuritishdan avval uning mohiyati haqida qisqacha mulohaza bildirish joiz. Askiya aytish qanchalar murakkab bo'lsa, uni tushunish ham oson emas.

Chunki askiyachi aytgan askiyada nozik soʻz oʻyini qoʻllaniladi. Soʻz oʻyinini tushunish esa uni oʻylab topishdek qiyin. Soʻz oʻyinida uni oʻylab topgan odamning fikrlash usulini qoʻllash lozim boʻladi. Shu bois askiya paytida kimdir kuladi, kimdir gap nima toʻgʻrisida borayotganini anglay olmay garang boʻlib turaveradi. Askiya janrining bosh maqsadi, uning mohiyati soʻz oʻyini vositasida kulgi hosil qilishdir.

Askiya jahondagi bironta xalq ogʻzaki ijodida uchramaydigan, soʻzdan soʻz hosil qilish, soʻz jilosidan toʻliq foydalanish, soʻz oʻyiniga asoslangan janrdir. Boshqa xalqlarda bu janrning uchramasligini esa, asosan, oʻzbek tilidagi soʻz boyligi bilan izohlash maqsadga muvofiqdir. Xususan, maqol, topishmoq, ertak, qoʻshiq, doston janrlari jahon xalqlari ijodida aynan yoki bir oz oʻzgargan holda uchraydi, ammo olimlar shu kungacha askiyaning boshqa xalqlarda mavjudligini aniqlamaganlar. Toʻgʻri, baʼzi paytlarda latifalarda askiyaga oʻxshash vaziyatlar uchrashi mumkin (peshka xodit ye 2-ye 4; on xodit yedva, yedva – shaxmat oʻyinidagi eng kichik sipoh ye 2 xonasidan ye 4 ga yuradi, biz nazarda tutgan odam esa zoʻrgʻa-zoʻrgʻa yuradi). Ammo muayyan xususiyatlarga ega alohida janr sifatida uchramaydi.

### **Nazorat savollari**

1. Askiyada ijro mahorati haqida nimalarni bilasiz?
2. Askiyaning kichik tarkibiy qismlarini sanab bering.
3. Askiyani ilmiy oʻrgangan olimlar va ularning ishlar haqida bayon qiling

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Muhammadiyev R. Askiya. – T., 1962.
2. Askiyada ijrochilik mahoratini oshirish yoʻllari (metodik tavsiyanoma). Tuzuvchilar: Joʻrayev M, Sobitova T. - T., 1985.
3. Said Anvar. Muhiddin Darvesh. - T.: Sharq NMAK, 2006.
4. Razzoqov H. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida satira va yumor. - T.: Fan,

1965.

5. Safarov O. O‘zbek xalq oG‘zaki ijodi. – T., “Musiqqa”, 2010

6. Madayev O. O‘zbek xalq oG‘zaki ijodi. T.: “Mumtoz so‘z”, 2010

7. Yo‘ldosheva F. O‘zbek latifalarida Nasriddin afandi obrazi. - T.: Fan, 1979.

8. Shoh Akbar va dono Birbol. - T., 1994.

9. Afandi latifalari. - T., 1989.

10. Sarimsoqov B. Lof / O‘zbek folklori ocherklari. 2-tom. - T.: Fan, 1989.

## GLOSSARIY

**Janr** (fr. genre – jins, tur, xil) – adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarni tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha. J. termining qo‘llanishida turlichalik kuzatiladi: ayrim manbalarda J. termini adabiy tur (epos, lirika, drama) ma'nosida ishlatilsa, boshqa birlarida ancha tor ma'noda (epos – tur, roman – xil, tarixiy roman – janr) qo‘llanadi.

**Shakl va mazmun** - voqea-hodisalarning tashqi ko‘rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.

**Metafora** - yunoncha “metaphora” so‘z bo‘lib, “ko‘chirish” degan ma'noni anglatadi. U narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan bo‘ladi. Biroq metafora aynan o‘xshatish emas.

**Metonimiya** - ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiya yunoncha “metonomadzo” so‘z bo‘lib, “qayta nomlash”dir.

**Sinekdoxa** - yunoncha “synecdoche” so‘z bo‘lib, unda bir qism yoki bo‘lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Ya'ni, bir butun hodisa

orqali uning ayrim bo‘lagi haqida mulohaza yuritiladi.

**Jonlantirish** - kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko‘chirishdir. Masalan, *xo‘mraygan bulutlar* deyiladi. Bunda kishilarga xos xo‘mrayish jonsiz bulutga ko‘chirilgan bo‘ladi. Asarlarda tog‘- Tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o‘xshatib gapirtiriladi.

**Sifatlash** - narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko‘rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo‘ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo‘lib, unda narsa-hodisalarning o‘tkinchi belgilari ta’kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo‘lib, bunda narsa--hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

**O‘xshatish** - narsa-buyumning ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O‘xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.

**Mubolag‘a** narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag‘a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi.

### ***TEST TOPSHIRIQLARI***

1. *Askiya hozirjavoblik musobaqasi sifatida qanday mezonga asoslanadi?*

- A. *Vaqtida fikran hujum qilishga yoki chekinishga*
- B. *Askiya mavzusini bilishga*
- C. *Askiya mavzusidan chetga chiqmaslikka*
- D. *So‘zga chechanlikka*

2. *Payrov nima?*

- A. *Askiyachining g‘alabasi*
- B. *Askiyachining yengilishi*
- C. *Askiyachining uyalishi*
- D. *Askiyaning mavzusi*

3. Xalq og‘zaki ijodidagi askiya qaysi olim yoki olimlar tomonidan o‘rganiladi?

- A. Rasul Muhammadyev
- B. Hodi Zarif
- C. Hoshimjon Razzoqov
- D. A va B

4. Bazzoz: “Yaktakning pulini bermaysizmi?” –degan savoliga Afandi qanday javob berdi?

- A. “Siz xam shartimni bajarib olasiz”.
- B. “Dadangiz olgan Qarzga o‘tib ketdi”.
- C. “Yanagi jumada olasiz”.
- D. “Shimni Qaytarib berdim-ku, nega pul to‘layman”.

5. Askiya hozirjavoblik musobaqasi sifatida qanday mezonga asoslanadi?

- A. Askiya mavzusidan chetga chiqmaslikka
- B. Vaqtida fikran hujum qilishga yoki chekinishga
- C. Askiya mavzusini bilishga
- D. So‘zga chechanlikka

## 8- mavzu: Tomosha san‘ati

### **Reja:**

1. O‘zbek xalq teatri va tomosha san‘ati.
2. Tomosha san‘atining an‘analri va o‘ziga xos jihatlari
3. Xalq teatri an‘analarining o‘rganilishi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** xalq teatri, tomosha san‘ati, qiziqchilik, muqallid, og‘zaki drama, sinkretik.

O‘zbek xalq teatri va tomosha san‘ati an‘analarining o‘ziga xosligi, bu folklor an‘analarining kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlarining tadqiq etilishi. O‘zbek xalq tomosha san'atining asosiy turlari, ijrochilari va ularning repertuari. Masxarabozlik, qiziqchilik, muqallid va askiyachilik

san'ati. Og'zaki drama va kulki-hikoyalarning mavzu yo'nalishi va syujeti. Askiya janri va uning turlari. Og'zaki dramalar poetikasi, syujet va motivlar talqini. Tomosha san'atining sinkretik tabiati.

Xalq teatri an'alarining M.Qodirov tomonidan o'rganilishi. Uning asarlarida og'zaki drama, masxarabozlar va qiziqchilar repertuaridagi asarlar tahlili. R.Muhammadiev va askiya janrning tadqiq etilishi.

Temur va temuriylar davrida tomosha san'ati. Xalq teatri an'alarining lokal tiplari va yetakchi ijodiy maktablari. Og'zaki drama va tomosha san'ati an'alarining ommaviy bayramlar hamda xalq sayillaridagi o'rni.

**Drama.** Yunoncha “drama” so'zidan olingan bo'lib, harakat, tanglik, mushkullik ma'nolarini bildiradi. Badiiy adabiyotda “drama” so'zidagi harakat ma'nosi asos qilib olingan va muayyan voqyea-hodisani sahnada harakat orqali ifodalash tushunchasi nazarda tutiladi. Shubhasiz, mazkur harakat orqali so'z vositasining yetakchiligini inkor qilish mumkin emas. Dramatik asarlarda vaqt, makon cheklangan bo'ladi. Voqyeaning mohiyati drama ishtirokchilarining nutqlari bilan ochiladi.

Xalq og'zaki ijodida dramatik janrlarni, Bahodir Sarimsoqov fikricha, og'zaki drama, kulki – hikoya, qo'g'irchoqbozlik, askiya janrlari tashkil etadi. Bu asarlarni ijro qiluvchilar faqat og'zaki nutqlari bilangina emas, tovush tovlanishi – intonatsiya, yuz, ko'z, bosh, qo'l harakatlarini ishga solib ham obraz yaratadilar. Oqibatda, tomoshabin tinglovchilarni o'ziga jalb qiladigan teatrlashgan tomosha ko'rinishi vujudga keladi.

Z.Husainova maqol va topishmoq o'rtasidagi yaqinlik haqida to'xtab shunday deydi: “Topishmoq ma'no va aytilishi jihatdan maqol bo'lib kelishi mumkin. Bunday maqollar dastlab topishmoq tarzida vujudga kelib, keyinchalik maqolga aylangan. Til haqidagi

*Birovni suydirar,*

*Birovni kuydirar.*



*Asaldan shirin,  
Zahardan achchiq*

topishmoqlari

*Suydirgan ham til,  
Kuydirgan ham til.*

*Shirin so‘z – shakar,  
Achchiq so‘z – zahar*

shaklida maqol sifatida qo‘laniladi”<sup>20</sup>.

Doston va ertaklardagi tasviriy mushtaraklik ham alohida tadqiqot yuritishga arziydigan mavzudir. Qahramonlarning tashqi qiyofasi, qiz – malikalarning go‘zalligi tavsifi shu qadar o‘xshash tasvirlanadiki, ba‘zan matni o‘qiyotganimizda asar doston yoki ertak ekanini unutib qo‘yamiz. Masalan, “Malika ayyor” dostonida Shozargar vaziyat taqozosi bilan sichqonga, uzukka, tishi olmos kalamushga, boshi olmos o‘q ilonga, va nihoyat, kal qiyofasidagi qimorbozga aylanadi. Dostonining bu sahifalari ko‘proq ertaklardagi transfiguratsiya (bir qiyofadan boshqa qiyofaga o‘tish) usulini eslatadi.

Bundan tashqari afsona, rivoyat, ertak, doston matnlarida o‘nlab maqollarning qo‘llanilishiga guvoh bo‘lamiz. “Alpomish” dostoning o‘zida:

*Chichqon ini ming tanga bo‘ldi.*

*Elakka borgan xotinning ellik og‘iz gapi bor*

kabi bir qator maqol, matal, hikmatli so‘zlar asar matnini bezab turibdi.

Xalq og‘zaki ijodi janrlari, ularning tarkibi, avvalo, ularning jins, tur,

---

<sup>20</sup> Хусаинова З. Топишмоқлар. Ўзбек фольклори очерклари. – Т., Фан, 1988. – Б. 110-111.

janrlarga bo‘linishidan tashqari bir butun meros ekanini tasdiqlaydi. Janrlararo yaqinlik og‘zaki ijodning asrlar davomida dunyoqarashi jihatidan yaqin ijodkorlarning iqtidori mahsuli natijasi sifatida baholanishi mumkin. Og‘zaki asar qaysi janrga taalluqli ekanidan qat’i nazar yosh avlodning barkamol farzand bo‘lib yetishishini ta’minlash maqsadini amalga oshirishda xalq xizmatida bo‘lgan.

### **Nazorat savollari**

1. O‘zbek xalq teatri va tomosha san’ati haqida nimalarni bilasiz?
2. Tomosha san’atining an’analri va o‘ziga xos jihatlari haqida gapiring.
3. Xalq teatri an’analarini qaysi olimlar o‘rganishgan?

### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Muhammadiyev R. Askiya. – T., 1962.
1. Askiyada ijrochilik mahoratini oshirish yo‘llari (metodik tavsiyanoma). Tuzuvchilar: Jo‘rayev M, Sobitova T. - T, 1985.
2. Said Anvar. Muhiddin Darvesh. - T.: Sharq NMAK, 2006.
3. Razzoqov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va yumor. - T.: Fan, 1965.
4. Safarov O. O‘zbek xalq oG‘zaki ijodi. – T., “Musiqqa”, 2010
5. Madayev O. O‘zbek xalq oG‘zaki ijodi. T.: “Mumtoz so‘z”, 2010
6. Yo‘ldosheva F. O‘zbek latifalarida Nasriddin afandi obrazi. - T.: Fan, 1979.
7. Shoh Akbar va dono Birbol. - T., 1994.
8. Afandi latifalari. - T., 1989.
9. Sarimsoqov B. Lof / O‘zbek folklori ocherklari. 2-tom. - T.: Fan, 1989.

## GLOSSARIY

**Janr** (fr. genre – jins, tur, xil) – adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarni tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha. J. termining qo‘llanishida turlichalik kuzatiladi: ayrim manbalarda J. termini adabiy tur (epos, lirika, drama) ma'nosida ishlatilsa, boshqa birlarida ancha tor ma'noda (epos – tur, roman – xil, tarixiy roman – janr) qo‘llanadi.

**Shakl va mazmun** - voqea-hodisalarning tashqi ko‘rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.

**Metafora** - yunoncha “metaphora” so‘z bo‘lib, “ko‘chirish” degan ma'noni anglatadi. U narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan bo‘ladi. Biroq metafora aynan o‘xshatish emas.

**Metonimiya** - ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiya yunoncha “metonomadzo” so‘z bo‘lib, “qayta nomlash”dir.

**Sinekdoxa** - yunoncha “synecdoche” so‘z bo‘lib, unda bir qism yoki bo‘lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Ya'ni, bir butun hodisa orqali uning ayrim bo‘lagi haqida mulohaza yuritiladi.

**Jonlantirish** - kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko‘chirishdir. Masalan, *xo‘mraygan bulutlar* deyiladi. Bunda kishilarga xos xo‘mrayish jonsiz bulutga ko‘chirilgan bo‘ladi. Asarlarda tog‘- tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o‘xshatib gapirtiriladi.

**Sifatlash** - narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko‘rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo‘ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo‘lib, unda narsa-hodisalarning o‘tkinchi belgilari ta'kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo‘lib, bunda narsa--hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

**O‘xshatish** - narsa-buyumning ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O‘xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.

**Mubolag‘a** narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag‘a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi.

**“Adabiyot”** - arabcha so‘z bo‘lib, u “odob” (ko‘plik shakli “adab”) so‘zidan olingan.

**“Adabiyot nazariyasi”** - adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bog‘liqlikni, so‘z san'atining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, badiiy asar tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yo‘nalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni o‘rganadi.

**An’ana** – folklorda o‘tmish ijodkorlar tamonidan to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi.

**Allegoriya** (yun. allos – o‘zgacha, agoreuo – gapiraman) – 1) mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko‘chim turi. Bu holda konkret narsani ifodalovchi so‘z (mas., tulki) mavhum tushunchani (tulki – ayyorlik) ifodalash uchun ko‘chma ma'noda qo‘llanadi.

**Alliterasiya** (lot. al – yonida, litera – harf) – she'riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi. A. she'rning alohida satri yoki misradagi so‘zlar guruhini fonik jihatdan ajratadi, natijada ularning ifodaviyligi ortadi, she'rning musiqiyliги, xushohangligi kuchayadi.

**Aforizm** (yun. aphorismos – ta'rif, ixcham ifoda) – muallifi ma'lum

bo'lgan, ixcham shaklda va ta'sirli ifoda etilgan umumlashma fikr.

**Badiiy tasvir va ifoda vositalari** – badiiy asarda narsa-hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi til vositalarining umumiy nomi.

**Badiha** (ar. – o‘ylovsiz, birdaniga aytilgan chiroyli so‘z, topqirlik) – avvaldan maxsus tayyorlanmasdan, daf‘atan aytilgan she'r; ekspromt (q.). B. biror voqeadan qattiq ta'sirlanish, mushoiralarda o‘zga shoir aytgan she'rga javoban yoki qaltis vaziyatdan hozirjavoblik bilan chiqish zarurati tufayli yaratiladi. B. she'r shoirdan yuksak darajadagi obrazli tafakkurni, she'r texnikasini mukammal egallash, badiiy san'atlardan o‘rinli va mohirona foydalana olish, konkret narsa-hodisa, voqea yoki holatni zudlik bilan va zakiyona baholab, ulardan badiiy umumlashma chiqara olish kabi malakalarni talab etadi.

**Doston** – 1) turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi epik janr. Xalq og‘zaki ijodidagi D.lar voqeaband syujet asosiga qurilgan yirik hajmli asarlar bo‘lib, ular baxshi (oqin, jirov, manaschi)lar tomonidan musiqa (do‘mbira, qo‘biz va b.) jo‘rligida ijro qilingan, og‘izdan-og‘izga o‘tib bizgacha yetib kelgan. Bu jarayonda har bir ijrochi o‘zidan nimadir qo‘shgan, nimanidir tushirib qoldirgan va shu tariqa D.lar sayqallanib borgan. Xalq ijodidagi D.ning matniy qurilishi ijroga mos – unda nasriy va she'riy parchalar almashinib turadi: rivoya asosan nasrda amalga oshirilsa, qahramonlar orasidagi eng muhim dialoglar, ularning ruhiy holatlari, ta'rifu tavsiflar, ijrochi munosabati va sh.k. ko‘proq she'riy yo‘lda beriladi;

**Janr** (fr. genre – jins, tur, xil) – adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarni tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha. J. termining qo‘llanishida turlichalik kuzatiladi: ayrim manbalarda J. termini adabiy tur (epos, lirika, drama) ma'nosida ishlatilsa, boshqa birlarida ancha tor ma'noda (epos – tur, roman – xil, tarixiy roman – janr) qo‘llanadi.

**Lirika** (yun. lyra – musiqa asbobi, qadimda she'rlar uning jo'rligida o'qilgan) – badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. L.da voqelik lirik sub'ekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq ob'ekti emas, sub'ekti birlamchidir.

**Mif** (yun. mythos – rivoyat, hikoya, masal) – xalq og'zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo'lgan, voqelik (olam) haqidagi tasavvurlarni konkret obrazlar vositasida aks ettiruvchi rivoyaviy asarlar. M. rivoyaviy asarlar (olam va odam haqidagi hikoyalar) bo'lsa-da, ularni tom ma'noda so'z san'ati hodisasi deb bo'lmaydi. M.lar qadimgi odamlar uchun tafakkur shakli, ular M. vositasida olam sir-sinoatlari (olaning yoki insonning yaratilishi, quyosh chiqishi va botishi, shamol esishi va momaguldurak sababi va h.)ni bilishga intilganlar, M.larda ularning olam haqidagi bilimlari o'z ifodasini topgan.

**Motiv** (lot. moveo – harakatlantiraman) – musiqashunoslikdan o'zlashtirilgan termin. M. musiqada asarning eng kichik shakl birligi sanalib, asar uning aynan takrorlanishi (shuningdek, o'zgartirilishi yoki zid M.lar kiritish) asosida rivojlanadi.

**Filologiya** - grekcha so'z bo'lib, philo - *sevaman*, logos - *so'z, bilim* demakdir.

**Folklor** – Folk – xalq, Lore – bilim, donishmandlik, ya'ni Folklore – xalq donishmandligi ma'nolarini ifodalaydi. Ilk marotaba Vilyam Toms tamonidan yevropa dehqonlarining an'analari, qadimiy xalq she'riyati, urf-odat, marosim va etiqodlarini anglatuvchi atama sifatida qo'llanilgan. O'zbek folklorshunosligida xalq og'zaki ijodini anglatadi. Ayni paytda xalq ijodiyatining barcha turlari ham folklor deb yuritiladi.

**Obraz** - so'zning o'zagi “raz” (chiziq) bo'lib, undan “razit”(chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq), undan “obrazit”(chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq) paydo bo'lgan. Ana shu “obrazit” so'zidan “obraz” atamasi vujudga kelgan. Bu so'z “umuman olingan tasvir” ma'nosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashtirilgan xususiyatni o'zida gavdalantirgan

hodisadir.

**Badiiylik** - hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, unda tasavvur uyg'otadigan qilib tasvirlash. Badiiylik barcha san'at turlariga xos hodisa.

**Badiiy to'qima** - obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqyealarni o'ylab topishdir.

**Romantik obrazlar** - ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siymosidir. Ularda ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to'g'risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo'ladi.

**Xayoliy-fantastik obrazlar** - romantik obrazlarga o'xshab ketadi. Bu obrazlarda ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo'ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo'jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko'rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy-fantastik obrazlar deyish mumkin.

**Majoziy obrazlar** - muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so'fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi.

**Allegorik obrazlar** - majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo'ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe'l-atvoridagi kamchilik, illatlar ko'rsatiladi.

**Xarakter** - o'z xatti-harakatlari, maqsad, intilishlari, o'y-kechinmalari, dunyoqarashi, fe'l-atvori bilan alohida ajralib turadigan to'laqonli obrazdir. Shuning uchun har qanday obraz badiiy xarakter bo'la olmaydi. Asardagi yetakchi qahramon har jihatdan faol bo'lsa, o'zining barcha jihatlari bilan yorqin ko'rinib tursagina u badiiy xarakter bo'la oladi.

**Personaj** - badiiy asardagi barcha qahramonlar, jumladan, badiiy xarakter darajasiga ko‘tarilmagan qahramonlar ham personaj hisoblanadi.

**Shakl va mazmun** - voqea-hodisalarning tashqi ko‘rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.

**Mavzu** - ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasi. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir.

**G‘oya** - ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma'lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa.

**Konflikt** - lotincha conflictus degan so‘z bo‘lib, “to‘qnashish” degan ma'noni bildiradi. Ziddiyat, to‘qnashuv hayot taraqqiyotini ta'minlovchi asos bo‘lgani singari badiiy konflikt ham asarning qiziqarli bo‘lishining yetakchi vositasidir.

**Kompozitsiya** - lotincha compositio so‘z bo‘lib, “tuzilish, qurilish, tarkib” demakdir. Badiiy asar kompozitsiyasiga quyidagicha ta'rif-tavsif berish keng tarqalgan: “badiiy asar qismlari, detallari, badiiy tasvir vositalarining ma'lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishi”.

**Syujet** - fransuzcha “sujet” so‘z bo‘lib, “narsa, mazmun, mavzu” degan ma'noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi.

**Fabula** - lotincha fabula so‘z bo‘lib, masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos bo‘lgan hayotiy material nazarda tutiladi. “Fabula — asar voqyealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog‘liqlikdagi yaxlit silsilasi” ham deyiladi. O‘z ma'no va mohiyatiga ko‘ra bu ikki termin bir-biriga sinonimik xarakterga ega bo‘lib, hozirgi adabiyotshunoslikda **syujet** termini faol qo‘llaniladi. **Fabula** termini esa asta-sekin iste'moldan tushib qolmoqda”.



**Ekspozitsiya** - lotincha *expositio* soʻz boʻlib, “tushuntirish” degan maʼnoni anglatadi. Voqealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, qahramonlar unib-oʻsgan muhit shart-sharoiti kabilar tasviri ekspozitsiya deb yuritiladi. Ekspozitsiya asarning istalgan oʻrnida boʻlishi mumkin.

**Epos.** yun. *epos* — soʻz, hikoya — 1) badiiy adabiyot turi (lirika va drama b-n bir katorda); 2) xalqning qahramonona oʻtmishini aks ettiruvchi asar. Epos tor maʼnoda, xalqning qahramonona oʻtmishini aks ettiruvchi asarlardir. Dastlab epos qahramonlarning atrof-olamdagi yovuz kuchlar va buzuq niyatli odamlarga qarshi kurashi bayon etilgan asarlarni anglatgan. Qadimgi eposlarda voqea-hodisalarning talqin va tasvir etilish yoʻsini oʻsha davr kishilarining dunyoqarashi, eʼtiqodi, ishonchlaridan kelib chiqqan. Eposning eng qadimiy namunasi sifatida ilmda oldinlari akkadlarniki deb sanalib kelingan, ammo keyinchalik barcha turkiy xalqlarga tegishli ekani aniqlangan «Gilgamish» dostoni hisoblanadi. Shuningdek, hindlar-ning «Ramayana» va «Mahabharata», Gomerning «Iliada» va «Odissey», oʻzbeklarning «Alpomish», «Goʻroʻgʻli», qirgʻizlarning «Manas», qozoqlar-ning «Qoʻblandi botir», ozarbayjon-larning «Koʻroʻgʻli», nemislarning «Nibelunglar haqida qoʻshiq», ispan-larning «Sid haqida qoʻshiq», fran-suzlarning «Roland haqida qoʻshiq», anglosaksonlarning «Beovulf», karel va finlarning «Kalevala», armanlarning «Sosunli Dovud», gurjilarning «Amirani» kabi asarlari ham xalq qahramonlik eposiga mansubdir.

**Etnografiya** – etno... va ... grafiya, etnologiya, xalqshunoslik — jahondagi barcha xalqlarning, etnik birlikshst turli tiilari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlarini, moddiy va maʼnaviy taraqqiyot darajasidan qatʼi nazar, teng holda oʻzaro tafovuti yoki umumiyliigi va oʻxshashligini, ularning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganuvchi maxsus fan sohasi.

**Tugun** - badiiy asarda qahramonlar oʻrtasidagi ziddiyatlarning paydo

bo'lishi. Tugun, ko'pincha, qahramonlarning ilk bor uchrashuvi yoki biror jiddiy muammo yuzasidan tortishishi tufayli paydo bo'ladi. Voqealar tuguni faqat qahramonlar o'rtasida emas, qahramonning aynan o'zining o'y-kechinmalari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

**Voqea rivoji** - syujetdagi voqealarning ma'lum tugundan so'nggi rivojlanish jarayoni. Tugun to'satdan yuzaga kelganday bo'lishi mumkin. Biroq voqea rivoji uzoq davom etadigan jarayon.

**Perepetiya** - syujet voqealari rivoji davomida paydo bo'lgan yangi tugunlar yoki chigalliklar.

**Voqealar kulminatsiyasi** - asar syujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko'tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko'rsatadigan epizod.  
**yechim** - syujet voqealari va qahramonlar taqdirining hal bo'lishini gavdalantiruvchi epizod.

**Muqaddima** - muallif o'quvchiga o'z maqsad-muddaosini ma'lum qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar berishi.

**Xotima** - qahramonlarning asar syujeti voqealari tamom bo'lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qismi.

**Portret** - fransuzcha portrait so'z bo'lib, "tasvir" degan ma'noni bildiradi. Badiiy asarda portret qahramon obrazini yaratishga asos bo'ladigan omillar orasida eng muhimidir. Chunki yozuvchi voqealarda ishtirok etayotgan, o'ylayotgan, qanaqadir maqsadlari bo'lgan qahramon qiyofa, ko'rinishini albatta gavdalantiradi. Qahramon portreti uning suratini ko'rsatish uchungina emas, balki ruhiy dunyosidagi holat, o'zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita bo'ladi.

**Detal** - ijodkor e'tiborni qaratgan personajlar ko'rinishi, qiyofasi xususidagi mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to'g'risida ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa detallar

asosida hosil bo‘ladi. Detal qahramon portretini emas, uning fe'l-atvorini ko‘rsatishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon haraketsajiyasini yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalantirishga ham asos bo‘ladi.

**Lirik chekinish** - ijodkorning syujet voqealarini to‘xtatib, ular tufayli o‘zida paydo bo‘lgan ichki kechinmalarni bayon etishi.

**Peyzaj** - fransuzcha “paysage” so‘z bo‘lib, “mamlakat”, “joy” degan ma'noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqea-hodisalar kechgan joylar ko‘rinishi tasviridir. U qahramonlar holat, kayfiyatini gavdalantirishning muayyan vositasi hisoblanadi.

**Sayyor syujet** - bir xil mavzu, bir xil qahramonlar taqdiri naql qilingan asarlar. Sayyor syujet barcha milliy adabiyotlar tarixida mavjud hodisa.

**Badiiy asar tili** - adabiy til me'yorlariga tayanadigan, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan til. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan **tasviriylik, emotsionallik, obrazlilik, aforizm** kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.

**Dialog** - yunoncha “dialogos” so‘z bo‘lib, “ikki kishi o‘rtasidagi so‘zlashuv” degan ma'noni anglatadi.

**Monolog** - ham yunoncha (monos — bir va logos — so‘z, nutq) so‘z bo‘lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o‘z-o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.

**Jargon** - fransuzcha “jargon” so‘z bo‘lib, “buzilgan til” degan ma'noni bildiradi. Binobarin, jargon sun'iy, yasama tildir. U muayyan guruh kishilari doirasidagina qo‘llanadi. Jargon so‘zlar ham barcha kishilarning nutqida ishlatiladigan so‘z, iboralardan tarkib topgan bo‘ladi.

**Metafora** - yunoncha “metaphora” so‘z bo‘lib, “ko‘chirish” degan ma'noni anglatadi. U narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan bo‘ladi.

Biroq metafora aynan o‘xshatish emas.

**Metonimiya** - ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiya yunoncha “metonomadzo” so‘z bo‘lib, “qayta nomlash”dir.

**Sinekdoxa** - yunoncha “synecdoche” so‘z bo‘lib, unda bir qism yoki bo‘lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Ya'ni, bir butun hodisa orqali uning ayrim bo‘lagi haqida mulohaza yuritiladi.

**Jonlantirish** - kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga ko‘chirishdir. Masalan, *xo‘mraygan bulutlar* deyiladi. Bunda kishilarga xos xo‘mrayish jonsiz bulutga ko‘chirilgan bo‘ladi. Asarlarda tog‘- tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga o‘xshatib gapirtiriladi.

**Sifatlash** - narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko‘rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo‘ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo‘lib, unda narsa-hodisalarning o‘tkinchi belgilari ta'kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo‘lib, bunda narsa--hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

**O‘xshatish** - narsa-buyumning ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O‘xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.

**Mubolag‘a** narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag‘a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi.

**Intonatsiya** - lotincha “intonare” so‘z bo‘lib, “qattiq talaffuz etish” degan ma'noni bildiradi. U so‘zlovchining, asar muallifining hodisaga munosabatini anglatuvchi ifoda vositasi sanaladi. Badiiy asarda intonatsiyani turli tinish belgilari, misralarning joylashish tarzi bildirib turadi.

**Parallelizm** - ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonma-yon qo‘yish

orqali mazmuni yorqinlashtirish uslubi sanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri bilan muqoyasa qilinadi yoki zidlashtiriladi. Ushbu yo‘l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta'sirchanligi kuchaytiriladi.

**Takror** - parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko‘rinib turadi. Chunki takror ayrim so‘z, iboralarning ma'lum bir tartib asosida qayta-qayta qo‘llanishidir. Takror muayyan maqsadga muvofiq qo‘llanadi. Takrorning anafora, epifora, misralar takrori singari ko‘rinishlari bor.

**Anafora** - yunoncha “anaphor” so‘z bo‘lib, “yuqoriga ko‘tarilish” degan ma'noni bildiradi. Bunda bir xil so‘z yoki so‘z birikmasi she'r misralari boshida aynan bir xil tarzda takrorlanib keladi.

**Inversiya** - lotincha “inversi” so‘z bo‘lib, “o‘rin almashtirish” degan ma'noni bildiradi. Bunda gap bo‘laklari grammatika me'yorlari tartibidan farqliroq tarzda qo‘llanadi. Inversiya ta'kidlanmoqchi bo‘lgan fikrga mantiqiy urg‘u berish, uni kuchaytirish, ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llanadi.

**Antiteza** - fikr ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llanadigan ifoda usullaridandir. U qarama-qarshi fikrlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

**Ritorik murojaat** - tantanavorlik, ko‘tarinkilik yoki kesatish, kuchli g‘azab, nafratni ifodalash uchun qo‘llanadigan xitob shaklidagi ifoda usulidir.

**Sillabik she'r tizimi** - bo‘g‘inlar miqdoriga asoslanadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalq she'riyati, shuningdek, italyan, polyak, fransuz, ispan, rumin xalqlari she'riyati ham sillabik she'r tizimiga mansubdir.

**Metrik she'r tizimi** - esa bo‘g‘inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab she'riyati shunday xususiyatga ega.

**Sillabo-tonik she'r tizimi** - bo‘lsa, urg‘uli, urg‘usiz bo‘g‘inlarning ma'lum

tartibda kelishiga asoslanadi. Rus she'riyati shundaydir.

**Tonik she'r tizimi** - misralarda urg'usiz bo'g'in qancha bo'lishidan qat'i nazar, ritm hosil bo'lishi, urg'ularning bir maromda kelishiga asoslanadi.

## GLOSSARIY LUG'ATI

№	O'zbekcha	Русча	Inglizcha
1.	<b>Epos.</b> yun. epos — so'z, hikoya — 1) badiiy adabiyot turi (lirika va drama b-n bir katorda); 2) xalqning qahramonona o'tmishini aks ettiruvchi asar.	<b>Эпос.</b> шерсть эпик - слово, рассказ - 1) вид художественного произведения (лирика и драма в одну строчку); 2) произведение, отражающее героическое прошлое народа	<b>Epos.</b> wool epic - word, story - 1) a type of fiction (lyrics and dramas in one line); 2) a work reflecting the heroic past of the nation
2.	<b>Takror</b> - parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko'rinib turadi. Chunki takror ayrim so'z, iboralarning ma'lum bir tartib asosida qayta-qayta qo'llanishidir.	<b>Повторение</b> — способ представления, близкий к параллелизму. Это хорошо видно по тексту. Потому что повторение — это многократное использование определенных слов и фраз в определенном порядке.	<b>Repetition</b> is a method of representation close to parallelism. It is clearly visible in the text. Because repetition is the repeated use of certain words and phrases based on a certain order.
3.	<b>Metonimiya</b> - ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim. Metonimiya yunoncha "metonomadzo" so'z bo'lib, "qayta nomlash"dir.	<b>Метонимия</b> — это несходный перенос, основанный на близости двух понятий. Метонимия — это греческое слово «метономадзо», что означает «переименовывать».	<b>Metonymy</b> is a dissimilar transfer based on the proximity between two concepts. Metonymy is a Greek word "metonomadzo" which means "to re-name".
4.	<b>O'xshatish</b> - narsa-buyumning ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O'xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.	<b>Аналогия</b> — это сравнение определенного признака предмета с другим предметом. Сравнение дает возможность ясно выразить мысль.	<b>An analogy</b> is a comparison of a certain sign of an object with another object. A simile gives an opportunity to clearly express an idea.

5.	<b>Mubolag‘a</b> narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag‘a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi.	<b>Преувеличение</b> — это описание вещей и событий путем усиления их характеристик и признаков. Преувеличение используется для того, чтобы отличить одни вещи от других.	<b>Exaggeration</b> is the description of things and events by intensifying their characteristics and signs. Exaggeration is used to distinguish certain things from others.
6.	<b>Dialog</b> - yunoncha “dialogos” so‘z bo‘lib, “ikki kishi o‘rtasidagi so‘zlashuv” degan ma‘noni anglatadi.	<b>Диалог</b> — это греческое слово «диалогос», что означает «разговор между двумя людьми».	<b>Dialog</b> is a Greek word "dialogos" which means "conversation between two people".
7.	<b>Konflikt</b> - lotincha conflictus degan so‘z bo‘lib, “to‘qnashish” degan ma‘noni bildiradi. Ziddiyat, to‘qnashuv hayot taraqqiyotini ta‘minlovchi asos bo‘lgani singari badiiy konflikt ham asarning qiziqarli bo‘lishining yetakchi vositasidir.	<b>Конфликт</b> — это латинское слово «conflictus», что означает «сталкиваться». Подобно тому, как конфликт является основой развития жизни, художественный конфликт является ведущим средством сделать произведение интересным.	<b>Conflict</b> is the Latin word conflictus, which means "to collide." Just as conflict is the basis for the development of life, artistic conflict is the leading means of making the work interesting.
8.	<b>Anafora</b> - yunoncha “anaphor” so‘z bo‘lib, “yuqoriga ko‘tarilish” degan ma‘noni bildiradi. Bunda bir xil so‘z yoki so‘z birikmasi she‘r misralari boshida aynan bir xil tarzda takrorlanib keladi.	<b>Анафора</b> — греческое слово «анафора», означающее «подниматься». При этом одно и то же слово или словосочетание точно так же повторяется в начале стихов стихотворения.	<b>Anaphora</b> is the Greek word "anaphor" which means "to rise up". In this case, the same word or combination of words is repeated in exactly the same way at the beginning of the verses of the poem.
9.	<b>Muqaddima</b> - muallif o‘quvchiga o‘z maqsad-muddaosini ma‘lum qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar berishi.	<b>Введение</b> - автор сообщает читателю о своей цели, дает пояснения и комментарии к своей работе.	<b>Introduction</b> - the author informs the reader about his purpose, gives explanations and comments about his work.
10.	<b>Monolog</b> - ham yunoncha (monos — bir va logos — so‘z, nutq) so‘z bo‘lib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning o‘z-	<b>Монолог</b> — это также греческое слово (monos — один и logos — слово, речь), представляющее собой	<b>Monologue</b> is also a Greek word (monos - one and logos - word, speech), which is the speech

	o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.	речь персонажей, участвующих в художественном произведении, обращенную к себе или другим.	of characters participating in a work of art addressed to themselves or others..
11.	<b>Allegorik obrazlar</b> - majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo'ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir.	<b>Аллегорические образы</b> относятся к числу фигуративных образов. Аллегорические образы обычно встречаются в притчах и сказках. Например, главные герои сказок – животные.	<b>Allegorical images</b> are one of the figurative images. Allegorical images are usually found in parables and fairy tales. For example, the main characters of fairy tales are animals.
12.	<b>An'ana</b> – folklorda o'tmish ijodkorlar tomonidan to'plagan ijodiy tajribalar qaymog'i, davrlar o'tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qismi.	<b>Традиция</b> – это сливки творческого опыта, собранные прошлыми творцами в фольклоре, часть, не утратившая своей важности и актуальности с течением времени, став вечной ценностью и переходящая из поколения в поколение.	<b>Tradition</b> is the cream of creative experiences collected by past creators in folklore, a part that has not lost its importance and relevance with the passage of time, becoming an eternal value and passing from generation to generation.
13.	<b>Badiha</b> (ar. – o'ylovsiz, birdaniga aytilgan chiroyli so'z, topqirlik) – avvaldan maxsus tayyorlanmasdan, daf'atan aytilgan she'r; ekspromt	<b>Бадиха</b> (ар. - красивое слово, сказанное внезапно, не подумав, изобретательность) - стихотворение, сказанное внезапно, без особой предварительной подготовки; экспромт	<b>Badiha</b> (ar. - a beautiful word spoken suddenly, without thinking, ingenuity) - a poem that was said suddenly, without special preparation in advance; impromptu .
14.	<b>Lirik chekinish</b> - ijodkorning syujet voqealarini to'xtatib, ular tufayli o'zida paydo bo'lgan ichki kechinmalarni bayon etishi.	<b>Лирическое отступление</b> – это прерывание художником событий сюжета и описание внутренних переживаний, возникших у него из-за них.	<b>Lyrical digression</b> is the artist's interruption of the events of the plot and the description of the inner experiences that arose in him because of them.
15.	<b>Antiteza</b> - fikr ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llanadigan ifoda usullaridandir. U qarama-qarshi fikrlarni	<b>Антитеза</b> — один из способов выражения, используемый для усиления воздействия идеи. Используется для	<b>Antithesis</b> is one of the methods of expression used to increase the impact of an idea. It is used



	ifodalash uchun ishlatiladi.	выражения противоположных мнений.	to express opposite opinions.
16.	<b>Sinekdoxa</b> - yunoncha "synecdoche" so'z bo'lib, unda bir qism yoki bo'lak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Ya'ni, bir butun hodisa orqali uning ayrim bo'lagi haqida mulohaza yuritiladi.	<b>Синекдоха</b> — это греческое слово «синекдоха», в котором часть или фрагмент передает целое, целое и наоборот. То есть через целое событие рассматривается какая-то его часть.	<b>Synecdoche</b> is the Greek word "synecdoche" in which a part or a fragment conveys the whole, the whole, and vice versa. That is, through a whole event, some part of it is considered.
17.	<b>Xotima</b> - qahramonlarning asar syujeti voqealari tamom bo'lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qismi.	<b>Заключение</b> – та часть, которая сообщает о судьбе героев после того, как события сюжета произведения закончились.	<b>The conclusion</b> is the part that informs about the fate of the characters after the events of the plot of the work are over.
18.	<b>Sifatlash</b> - narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib ko'rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo'ladi. Birinchisi oddiy sifatlash bo'lib, unda narsa-hodisalarning o'tkinchi belgilari ta'kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo'lib, bunda narsa-hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.	<b>Охарактеризовать</b> — значит четко выделить признак или характеристику вещи или события. Существует два типа квалификации. Первая — это простая квалификация, подчеркивающая преходящие характеристики вещей. Вторая — постоянная характеристика, которая относится к постоянным свойствам вещей и событий.	<b>To characterize</b> is to clearly single out a sign or characteristic of a thing or phenomenon. There are two types of qualification. The first is a simple qualification, which emphasizes the transitory characteristics of things. The second is permanent characterization, which refers to the permanent properties of things and events.
19.	<b>Alliterasiya</b> (lot. al – yonida, litera – harf) – she'riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko'rinishi	<b>Аллитерация</b> (лат. al — рядом, litera — буква) — средство усиления выразительности, основанное на повторении в поэтической речи одних и тех же согласных звуков (относительно редкое в прозе), особая форма повторения на фонетическом уровне	<b>Alliteration</b> (lat. al - next to, litera - letter) is a means of enhancing expressiveness based on the repetition of the same consonant sounds in poetic speech (relatively rare in prose), a special form of repetition at the phonetic level

20.	<b>Janrlar</b> – jadid adabiyotining yangi janrlari.	<b>Жанры</b> – это новые жанры современной литературы.	<b>Genres</b> are new genres of modern literature.
21.	<b>Tugun</b> - badiiy asarda qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo'lishi.	<b>Узел</b> — это возникновение конфликтов между персонажами в художественном произведении.	<b>A knot is the emergence</b> of conflicts between characters in a work of art.
22.	<b>Inversiya</b> - lotincha "inversi" so'z bo'lib, "o'rin almashtirish" degan ma'noni bildiradi.	<b>Инверсия</b> — это латинское слово «inversi», что означает «менять местами».	<b>Inversion</b> is the Latin word "inversi" which means "to switch places".
23.	<b>Peyzaj</b> - fransuzcha "paysage" so'z bo'lib, "mamlakat", "joy" degan ma'noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqeahodisalar kechgan joylar ko'inishi tasviridir. U qahramonlar holat, kayfiyatini gavdalantirishning muayyan vositasi hisoblanadi.	<b>Пейзаж</b> - французское слово "paysage" означает "страна", "место". Пейзаж – это изображение природных сцен, мест, где происходили события, отраженные в художественном произведении. Это особое средство воплощения состояния и настроения героев.	<b>Landscape</b> - the French word "paysage" means "country", "place". A landscape is an image of natural scenes, places where events took place, reflected in an artistic work. It is a special means of embodying the state and mood of the heroes.
24.	<b>Obraz</b> - so'zning o'zagi "raz" (chiziq) bo'lib, undan "razit"(chizmoq, yo'nmoq, o'yumoq), undan "obrazit"(chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq) paydo bo'lgan.	<b>Изображение</b> - корень слова "раз" (линия), от него появилось "разить" (чертить, вырезать, вырезать), от него "образить" (чертить, вырезать, вырезать, придавать форму).	<b>Image</b> - the root of the word is "raz" (line), from it "razit" (to draw, carve, carve), from it "obrazit" (to draw, carve, carve to make a shape) appeared.
25.	<b>Romantik obrazlar</b> - ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siyosidir. Ularda ijodkorlarning orzu-umidlari, jamiyat to'g'risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo'ladi.	<b>Романтические образы</b> – это образы людей, которые выражают мечты творцов. Они показывают мечты и надежды творцов, их намерения в отношении общества и людей.	<b>Romantic images</b> are images of people who express the dreams of creators. They show the dreams and hopes of creators, their intentions about society and people.
26.	<b>Aforizm</b> (yun. aphorismos – ta'rif, ixcham ifoda) – muallifi ma'lum bo'lgan, ixcham shaklda va ta'sirli ifoda etilgan umumlashma fikr.	<b>Афоризм</b> (греч. aphorismos — определение, краткое выражение) — общая мысль, автор которой известен, выраженная кратко и эффектно.	<b>Aphorism</b> (Greek: aphorismos - definition, concise expression) is a general idea whose author is known, expressed in a concise form and

			effectively.
27.	<b>Xarakter</b> - o'z xatti-harakatlari, maqsad, intilishlari, o'y-kechinmalari, dunyoqarashi, fe'l-atvori bilan alohida ajralib turadigan to'laqonli obrazdir.	<b>Персонаж</b> – это полноценный образ, отличающийся своими поступками, целями, стремлениями, мыслями, мировоззрением, характером.	<b>A character</b> is a full-fledged image that is distinguished by its actions, goals, aspirations, thoughts, worldview, character.
28.	<b>Mafkura</b> – jadidchilikning ijtimoiy-iqtisodiy – ma'naviy qarashlari majmuasi.	<b>Идеология</b> представляет собой совокупность социально-экономических и духовных взглядов джадидизма.	<b>Ideology</b> is a set of socio-economic and spiritual views of Jadidism.
29.	<b>Rivoyat</b> – voqea ichida fikrni tasdiqlovchi hikoyat yoki hayotiy bo'lmagan voqea.	<b>Нарратив</b> — это история, которая подтверждает идею в рамках события или события, не связанного с жизнью.	<b>A narrative</b> is a story that confirms an idea within an event or a non-life event.
30.	<b>Realistik epik janr</b> – keng voqelikni aks ettirgan yirik she'r.	<b>Реалистический эпический жанр</b> — большая поэма, отражающая огромную действительность.	<b>Realistic epic genre</b> - a large poem that reflects the vast reality.
31.	<b>Umuminsoniy g'oya</b> – dunyo afkor ommasining qarashlarini ifodalovchi g'oya.	<b>Универсальная идея</b> – это идея, выражающая взгляды мирового общественного мнения.	<b>A universal idea</b> is an idea that expresses the views of the world public opinion.
32.	<b>Hikoyat</b> – realistik hikoyaning paydo bo'lishigacha bo'lgan sharqona naql qilish usuli.	<b>Сторителлинг</b> — восточный метод повествования, предшествовавший возникновению реалистического рассказа.	<b>Storytelling</b> is an oriental method of narration that preceded the emergence of a realistic story.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: "Musiqqa" nashriyoti, 2010.
2. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslik kirish. – Toshkent: "Barkamol fayz media", 2017.
3. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan. 2009.
4. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek folklori. Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni. 2020.
5. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2013.

6. Mirzayev T. va boshqalar. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. - Toshkent: Aloqachi. 2008.
7. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakteristikalar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi 2017 yil, 8 fevral).
9. 111. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: Uzbekistan, 2017.
10. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida (Xalq so‘zi 2017 yil, 21 aprel).
12. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. (Nazariy kurs matni). – T.: 1999.
13. Mirzaev T. Epos i skazitel. – Tashkent: Fan. 410 s.
14. Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent, O‘zbekiston, 2012.
15. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – Toshkent: Fan. 2008.
16. Eshonqulov .I. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent. Fan. 2006.
18. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: Fan. 2010.
19. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015, 2016.

**Axborot manbalari:**

1. [www.academia.edu](http://www.academia.edu)
2. [www.alishernavoiiy.uz](http://www.alishernavoiiy.uz)
3. [www.e-adabiyot.uz](http://www.e-adabiyot.uz)
4. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)
5. [www.literarytheory.narod.ru](http://www.literarytheory.narod.ru)
6. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
7. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
8. [www.online.navoiy-uni.uz](http://www.online.navoiy-uni.uz)
9. [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)
10. [www.scholar.google.com](http://www.scholar.google.com)
11. [www.scopus.com](http://www.scopus.com)
12. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
13. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
14. [www.guldu.uz](http://www.guldu.uz)
15. [news.uzreport.uz.news](http://news.uzreport.uz.news).
16. [www.folklore.ru](http://www.folklore.ru).
17. 21. [www.folksentr.ru](http://www.folksentr.ru)
18. <https://m.vk.com/club>.
19. [folklore.tomsk.ru](http://folklore.tomsk.ru)

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
1-mavzu: Xalq o‘zaki ijodi so‘z san’ati sifatida. Xalq o‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari.....	5
2-mavzu: Mavsumiy va oilaviy marosim folklori namunalari va ularning badiiyati.....	15
3-mavzu: Qo‘shiq: Mehnat qo‘shiqlari va termalar.....	39
4-mavzu: Bolalar folklori va ularning talqinlari, badiiy xususiyatlari.....	49
5-mavzu: Lirik qo‘shiqlar.....	58
6-mavzu: Latifa va lof janrlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	67
7-mavzu: Askiya.....	73
8-mavzu: Tomosha san’ati.....	80
Glossariy.....	84
Foydalanilgan adabiyotla ro‘yxati.....	100

## СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	4
Тема 1: Народное творчество как искусство слова. Особенности народного творчества.....	5
Тема 2: Образцы обрядового и семейного фольклора и их художественные особенности .....	15
Тема 3: Песня: Трудовые песни и жанр «Терма».....	39
Тема 4: Детский фольклор и его интерпретации, художественные особенности.....	49
Тема 5: Лирические песни.....	58
Тема 6: Особенности жанров латифа и лоф.....	67
Тема 7: Жанр «Аския».....	73
Тема 8: Народный театр.....	80
Глоссарий.....	84
Литературы .....	100

## CONTENTS

Introduction.....	4
Topic 1: Folk creativity as an art of words. Peculiarities of folk creativity.....	5
Topic 2: Samples of seasonal and family ceremonial folklore and their artistry.....	15
Topic 3: Song: Labor songs and terms.....	39
Topic 4: Children’s folklore and their interpretations, artistic features.....	49
Topic 5: Lyrical songs.....	58
Topic 6: Specific features of Latifa and lof genres.....	67
Topic 7: Askiya.....	73
Topic 8: Performing arts.....	80
Glossary.....	84
List of used literature.....	100

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**PRIMOV ABDULATIF**

# **O‘ZBEK FOLKLORI**

**(O‘zbek xalq lirikasi va dramasi)**

**O‘quv qo‘llanma**

**60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)**

Terishga berildi: \_\_\_\_ - \_\_\_\_\_ 2023-y.  
Bosishga ruxsat berildi: \_\_\_\_ - \_\_\_\_\_ 2023-y.  
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>.  
«Times» garniturasini. Ofset bosma usuli.  
Nashr hajmi 6 bosma taboq  
Adadi: 100 nusxa.